

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT IQTISOD FAKULTETI

“TASDIQLAYMAN”

“Kredit-iqtisod” fakulteti

Dekani O. Sattarov_____

«__»_____ 2013 y.

“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

SAYDALIYEV DANIYOR RAXMATOVICH

“Banklarda lizing operatsiyalari va ularning hisobi”

5230700 – “Bank ishi” ta’lim

yo’nalishi bo’yicha

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Himoyaga tavsiya etiladi:

“Bank hisobi va audit” kafedrası
mudiri_____ prof.T.Qoraliev

2013yil “__” _____

Ilmiy rahbar:

_____ k.o’q. M.Kenjaev

2013yil “__” _____

TOSHKENT - 2013

Mundarija

	bet
KIRISH	3
I.BOB. Lizing operatsiyalarining mohiyati va ularni amalga oshirishda banklarni roli	6
1.1. Lizing operatsiyalarining mohiyati va uning turlari.....	6
1.2. Lizing operatsiyalarini amalga oshirishda banklarning o'рни va roli.....	16
II BOB. Tijorat banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va ularni hisobini yuritishning tahlili.....	26
2.1. Tijorat banklarining lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibini tahlili.....	26
2.2. Lizing beruvchi bankda lizing hisobini yuritishning tahlili.....	31
2.3. Lizing oluvchi bankda lizing hisobini yuritishning tahlili.....	34
III BOB. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida lizing imkoniyatlari va lizing operatsiyalarini rivojlantirishni istiqbollari.....	41
3.1. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlar faoliyatida moliyaviy lizing imkoniyatlarini oshirish yo'llari.....	41
3.2. Tijorat banklarida lizing xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari.....	46
XULOSA VA TAKLIFLAR	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	52

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasining moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishonchliligi namoyon qildi. Shu bilan birga, moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlanishi xususiy banklar hamda xususiy mulkchilikka asoslangan lizing tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari. Mikromoliyalash tashkilotlari kabi moliya institutlarining tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish orqali tizimga xususiy kapitalni jalb qilish bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda aksariyat mutaxassislar tamonidan xususiy kapitalning bank-moliya bozoridagi ulushining oshib borishi sifatli moliya xizmatlari ko'rsatish turlari va hajmining yanada oshirishga ko'maklashuvchi omil xisoblanishi ta'kidlab o'tilmaqda.

Davlatimiz rahbari 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi" nomli ma'ruzalarida amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablarga muvofiq erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan qonunlar qabul qilishni hayotni o'zi taqozo etayotganligini, moliya-bank yanada rivojlantirish, xususiy bank va bishqa xususiy moliyaviy tashkilotlar faoliyatining qonunchilik asoslarini shakllantirish orqali mazkur sohaga xususiy kapitalning jalb etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zaarurligini qayd etganlar.¹

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda milliy mustaqil moliya-bank tizimini yaratish bo'yicha bir nechta bosqichdan iborat juda muhim islohatlar amalga oshirildi va xalqoro andozalarga mos keladigan moliya – bank tizimi shakllandi hamda uni rivojlantirish va takomillashtirish ishiari ettirilmoqda.

Kredit tashkilotlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish bo'yicha keying yillarda ko'rilgan maqsadli chiralarning natijasida moliya - bank tizimi sub'ektlarining iqtisodiyot real sektori korxonalarini, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash faoliyati yanada jadallashdi.

¹. 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi" nomli ma'ruzalaridan.

Investitsion kreditlarni ustivor ravishda iqtisodiyotning real sektori korxonalari bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalashga, texnik va texnologik yangilashga yo'naltirilishi jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda iqtisodiyotimizda Prezidentimiz I.Karimov takidlaganidek “ Banklarning investitsiya kreditlari ustivor ravishda “ 2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish”, “ 2012 yilgi Investitsiya dasturi” hamda tarmoqlarini modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo'llab – quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarhi sotib olishga yo'naltirilmoqda”.¹

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklar va lizing kompaniyalari faoliyatiga doir ma'lumotlarni o'rganish va tahlil etishdir.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti. Respublikamiz tijorat banklari faoliyatida amalga oshiriladigan lizing operatsiyalari va lizing to'lovlari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritilishi tadqiqot predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi lizing munosabatlarini tashkil etishning asosiy nazariy masalalarini va lizing operatsiyalari bo'yicha banklarda buxgalteriya hisobi yuritilishini taqiq qilish.

Mazkur tadqiqot ishida lizing munosabatlariga doir xulosalardan va unda ilgari surilgan takliflardan kelib chiqib Respublikamiz tijorat banklari faoliyatida lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishdir.

Ushbu maqsadlar doirasidan kelib chiqib quydagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

- Lizing munosabatlarini tartibga solishning asosiy nazariyalarini o'rganish va umumlashtirish.
- Lizing munosabatlari va opertsiyalariga doir xorijiy mamlakatlar banklar tajribasini tahlil etish va ijobiy jixatlarini tadbiq etish.
- Tijorat banklarda lizing operatsiyalari hisobini takomillashtirish masalalari asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

1 I.A.Karimov “2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtosodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishla” rga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan.

O'zbekistonlik va xorijiy iqtisodchi olimlarning banklarda lizing operatsiyalari va ularning hisobini takomillashtirish yo'nalishdagi ilmiy izlanishlari hisoblanadi. Shuningdek tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining qonunlaridan, Prezident farmonlaridan, Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan, Markaziy va tijorat banklarining yo'riqnoma hamda xisobot materiyallaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy yangilik elementlari tijorat banklarida lizing operatsiyalarini pivojlantirish va takomillashtirish Respublikamiz iqtisodiyotining o'sishiga ko'maklashishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Malakaviy ishning kirish qismida, mavzuning dolzarbligi va Respublika iqtisodiyotida ahamiyati hamda, amaliy jihatlari bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida lizing operatsiyalarining mohiyati, turlari va ularni amalga oshirishda tijorat banklarning ro'li yoritib berilgan.

Malakaviy ishning ikkinchi bobida tijorat banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartib va qoidalari, hamda lizing operatsiyalarini tegishli hisob raqamlar bo'yicha hisobini yuritilishiga doir ma'lumotlar yoritilgan.

Malakaviy ishning uchinchi bobida Respublikamiz tijorat banklarida lizing imkoniyatlari va ularni rivojlantirishga doir masalalar o'z ifodasini topgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzuni nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida ishlab chiqilgan xulosalar hamda tavsiyalar bayon etilgan.

I.BOB. Lizing operatsiyalarining mohiyati va ularni amalga oshirishda banklarni roli

1.1. Lizing operatsiyalarining mohiyati va uning turlari

Lizing munosabatlari bo'yicha operatsiyalar dunyoning barcha mamlakatlarida keng ko'lamda qo'llanilayotgan eng samarali moliyaviy xizmat turlaridan xisoblanadi. Keyingi 25 yilda rivojlangan mamlakatlarda lizing operatsiyalarning hajmi bir necha martaga oshgan va ularning 30-35 foizdan ortiq investitsiyasi lizing orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu raqamlar shuni izoxlaydiki lizing munosabatlari dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega va bugungi kunda ham ushbu moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bir yil va undan uzoqroq muddatga ijara to'g'risida tuzilgan va qatorbelgilangan to'lovlarni qamrab oladigan shartnoma ko'pgina hollarda lizing deb ataladi.

Uzoq muddatli xizmat qilinadigan uskunalarni xarid etishning o'rniga firmalar ko'pincha lizingga murojat etagilar. Ijaraga har qanday mulk, y'ni elektrostasiyalardan boshlab, atom yonilg'isi, temir yo'l vagonlari, transport, samolyotlar, paroxodlar, gandbol maydonchalari, komp'yuterlar va boshqa turdagi uskunalar olinishi mumkin.

Ko'pincha adabiyotlarda lizing tarmog'i to'g'risida fikr yuritiladi, bunda ijara beruvchilar ustida gap ketadi. Ko'pgina ijara beruvchilar uskunalarni ishlab chiqaruvchilardir. Masalan, GATX-temir yo'l vago'nlarini ijaraga beruvchidir, IBM – komp'yuterlarini yirik ijaraga beruvchidir, XEROX – nusxa ko'chirish mashinalarini ijaraga beruvchidir. Bulardan tashqari ikkita yirik ijaraga beruvchilar guruhini ajratish mumkin, bular banklar va mustaqil lizing kompaniyalaridir, ular o'zlarining turli xizmatlarini bajaradilar.

Lizing ko'pgina shakllarda tadbiq etiladi, leki to'lovlarini to'lashni o'z n har doim ijaraga oluvchi ijaraga beruvchiga mavsumiy to'lovlarni, y'ni lizing to'lovlarini to'lashni o'z zimmasiga oladi.

Lizing bitimida, odatda unga imzo chekilishi bilan, har oylik yoki bo'lmasa yarim yillik bo'mish to'lovlar o'z aksini topadi. To'lovlar muddatlari lizing foydalanuvchisining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ham belgilanishi mumkin. Bunda, lizing bitimi bo'yicha birinchi ijara yili to'lovlari kamroq miqdorda ham belgilanishi mumkin.

Lizing bitimi tugagach, ijaraga olingan mulk ijaraga beruvchiga qaytariladi. Lekin, ko'p holatlarda lizing shartnomasi ijaradan foydalanuvchiga

mulkni yoki, ijaraga olingan uskunalarni sotib olish yoki bo'lmasa yangitdan lizing shartnomasini yangilashni, ya'ni qayta tuzish imkoniyatini beradi.

Lizingni ayrim turlari qisqa muddatli bo'lib, ijaraga olinuvchi tomonidan lizing bitimining uzilishiga ham olib kelishi mumkin. Bunday hollarda ushbu lizing "operation" lizing nomini oladi.

Lizing shartnomalarini boshqa turlari esa mulkni tassavur qilingan iqtisodiy xayotning ko'proq qismiga tuziladi va shartnomani bekor qilishni taqiqlaydi, yoki bo'lmasa shartnoma bekor qilinganda ijaraga beruvchini ko'radigan zararlarini qoplanishi taminlashni ko'zda tutadi. Bunday lizing capital, moliyaviy yoki to'la to'lovli lizing deb ataladi.

Moliyaviy lizing moliyalashtirish manbai bo'ladi. Moliyaviy lizingni imzo chekilishini qarz olish bilan taqqoslash mumkin, chunki pul mablag'larini kelishi darhol amalga oshadi, chunki ijaraga oluvchi mulkni bir vaqtda to'lash zaruriyatidan ozod bo'ladi. Ammo, ijaraga oluvchi lizing bitimida aniqlangan to'lovlarni amalga oshirib borish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Ijaraga oluvchi shunday mahorat bilan mulkni to'liq qiymati hajmida kredit olishi ham mumkin bo'lar edi, qarzni va u bo'yicha foiz to'lovlarini qaytarish va to'lash sharti bilan. SHunday qilib moliyaviy lizing va qarz olish bo'yicha pul oqimlari bir biriga yaqin bo'lgan holda o'hshashib ketadi. Ikkala holatda ham xo'jalik sub'ekti pui mablag'larini bir zumda oiadi va keyinchalik ularni qaytaradi.

Ushbu jihatdan lizing kredit hisobidan moliyalashtirishni muqobil usuli sifatida qaraladi.

Lizing ijaraga beruvchi tomonlarning hizmat ko'rsatish jihatlaridan ham farqlanadi.

To'la xizmat ko'rsatish yoki ijara lizingi shartnomasida ijaraga beruvchi uskunani to'la xizmat ko'rsatish va sug'urtalash majburiyatini va mulk solig'ni to'lab boorish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Moliyaviy lizingni ko'p turlari sof lizingni tashkil etadi.

Moliyaviy lizingni ko'pgina qismi yangi uskunalar bilan bog'liq bo'ladi. Ijaraga oluvchi uskunalarni tanlagach, lizing kompaniyasi bilan kelishilgan holda, uning ishlab chiqaruvchisidan sotib olish to'g'risidagi lizing bitimini lizing kompaniyasi bilan imzolaydi. Bu turdagi lizing bitimi bevosita lizingdan dalolat deradi. Ayrim hollarda esa firma o'ziga tegishli bo'lgan mulkni sotadi va uni yangi egasidan ijaraga qaytarib oladi. Mulkni sotib, uni yna lizing asosida ijaraga olish shartnomalari asosan ko'chmas mulki bilan bog'liq bo'lgan holda keng tarqalgan. Bunda muikni egalik huquqi sotilgan holda va pul tushumiga ega bo'lgan holda sotuvchi lizing shartnomasi asosida mulkdan foydalanish huquqini kiritadi va ushbu

mulkdan foydalanishni davom ettiraveradi. Amaliyotda, bulardan tashqari, qarz evaziga lizing munosabatlarini yo'lga qo'ish ham uchrab turadi. Bu esa moliyaviy lizingni shunday turiki, unda ijaraga beruvchi mulk qiymatini bir qismiga kredit olib, lizing bitimini olingan kredit garovi sifatida ishlatiladi.

Mulk sotib olish, unga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish hususidagi iqtisodiy munosabatlar majmui sifatidagi lizingning mohiyati taqiq etilar ekan, shuni aytish joyizki, bular mulkiy munosabatlar majmuidir, uning asosini pui va tovar tarzida amalga oshiriladigan kredit va moliya munosabatlari tashkil etadi. Ularni moliyaviy munosabatlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqib lizing bank kreditlashi ana'naviy usuli yoki investitsiyalarni bevosita moliyalashtirishga nisbatan aniq ustunlikka ega bo'lgan korxona asosiy kapitaliga investitsiyalarni moliyalashtirishning g'ayri'an'anaviy usulidan iborat, deb t a'kidlovchi mualliflarning fikriga qo'shilish mumkin. Lizing munosabatlarining negizini moliyaviy munosabatlar majmui (kredit va ijara ham shu jumladan) tashkil etadi, bular yordamida zamon va makonda moliya resurslarini kapitalning mavjud qiymatini saqlab qolish yoki ko'paytirish maqsadida qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Uskunalar ishlab chiqaruvchi, o'z mahsulotini sotar ekan tovarlashish, daromadni yo'qotish riskidan holi bo'ladi, lizing kompaniyasi, o'z navbatida xususiy mulkini kapital mavjud qiymatini saqlash va uning kapitallashuvini saqlash maqsadida o'z mulkini investitsiya-laydi, lizing oluvchi esa o'z xususiy mulkini biror-bir tarzda qo'ymasdan, mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniga, shu bi-lan bir vaqtda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va lizing mulkdan foy-dalanishda foyda chiqarish imkoniga ham ega bo'ladi.

Shunday qilib, lizing munosabatlari yordamida, moddiy va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash asosida lizing bitimida qatnashuvchi tomonlar barchasining manfaatlari birgalikda amalga oshadi va kapital hamda yo'qotish riski ancha teng taqsimlanadi.

Ayrim iqtisodchilar lizing oluvchi va lizing beruvchi tomonlarning o'zaro munosabatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, lizingni ikki turini ajratadilar. Birinchisi to'g'ri ya'ni bevosita va ikkinchisi – bilvosita lizing. Agarda mulkni ishlab chiqaruvchisi yoki egasi lizing beruvchi bo'lib xizmat qilsa bu bevosita lizing demakdir, agarda mulk ijaraga uchinchi shaxs orqali berilsa, u holda bunday lizing bilvosita lizingni tashkil etadi.

Kredit bilan ta'minlash uslubiga ko'ra muddatli va qaytariladigan lizingni ajratish mumkin. Muddatli lizing bir marotabali ijarani, qaytariladigan esa, shartnomani birinchi muddati tugagach, uni qaytarilishidan va ijarani bir necha marotaba bo'lishidan dalolat beradi.

Ijaraga beriladigan obyektni xususiyatlaridan kelib chiqib ko'char mulk lizingi va ko'chmas mulk lizingini ajratishadi.

Odatda ko'chmas mulk lizingi qurilishda ishlatiladi. Ko'pincha, ko'chmas mulk obyektlarini qurishda, qurilishning o'zini jalb qilinadigan mablag'larini yetishmovchiligiga duch kelinadi. Bunday hollarda, lizing kompaniyalari, qurilishni kredit bilan ta'minlash, shuning uchun esa uni ko'chmas mulk lizingi bilan rasmiylashtirish amaliyotini qo'lladilar.

Ko'chmas mulk obyektni ishlatilishi evaziga olinadigan foydani ko'pgina qismiga ega bo'ladi. Ammo, obyektni o'zi emas, aksincha, ijaraga olgan firma yoki tashkilot ishlatiladi, undan o'zi foydalanishi mumkin yoki bo'lmasa qisman uni ijaraga topshirishi ham mumkin.

Investitsiyalar - lizing biznesiga safarbar etilgan kapital bo'lib, pul shaklidagi kapitaldan shu bilan farqlanadiki, u qadrsizlanishdan saqlanadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida yer, ko'chmas mulk qiymati ko'tarilib boradi.

Kredit muassasi, lizing operatsiyalarini o'tkazishda kelib chiqadigan risklarni baholashda, odatda quyidagi omillarni e'tiborga oladi:

- lizing oluvchi kompaniyaning tijorat obro'si va moliyaviy holati;
- ushbu kompaniya faoliyat yuritayotgan mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va fiks-monetar vaziyat (milliylashtirish riski, garrov huquqlari tadbiq etilishdagi qiyinchiliklar riski va boshqalar)
- shartnoma hajmining sotish narxi, va keying yillarda ikkilamchi bozorda ushbu narxini o'zgarishi;
- lizing oluvchi firmaning lizing obyektidan foydalanish shartlari.

Lizingga oid bo'lgan risk qator omillarga bog'liq, lekin ular tarkibida ikkita omil asosiydir:

- lizing shartnomasining sifati;
- uskunalarni yetkazib berish muddatlarini buzilishi.

Lizing munosabatlari lizing beruvchi, lizing oluvchi, ishlab chiqaruvchi o'rtasida ular manfaatlaridan kelib chiqadi. Lizingni vujudga kelishi ishtirokchilarni manfaatlarini uchrashishini bildiradi. Manfaatlardan mos tushgan holdagina lizing munosabatlari o'rnatiladi. Demak, lizingni rivojlantirishni asosiy omillaridan biri obyektiv ravishda lizing ishtirokchilarini manfaatlarini keltirib chiqarish, ularni uchrashtirish muhitini yaratishdir. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, iqtisodiy munosabatlarni lizing ishtirokchilari, ya'ni subyektlari, rivojlanish darajasiga bog'liqligi kelib chiqadi. Iqtisodiyotda muayyan muhit, uni ishtirokchilari va o'zaro manfaatlar muhitini vujudga kelishi talab etiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida lizing oluvchilar ehtiyojlari mavjud, ammo yangi texnologiya ishlab chiqaruvchilar lizing kompaniyasi sifatida xizmat

ko'rsatadigan va o'z moliyaviy mablag'lariga yetarli darajada ega bo'lgan muassasalar xali yetarli emas. Bu esa, o'z navbatida ushbu jihatdan kerakli bozor infratuzilmalarini yaratish, rivojlantirish, takomillashtirish va ular asosida lizing munosabatlarini obyektivligini ta'minlashni talab etadi.

Qisqa muddatli, ya'ni operatsion lizing juda ham qulay bo'lib ko'p jihatdan o'z afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, lizing bitimi qisqa muddatga tuzilishi munosabati bilan, operatsion lizing juda ham qulay, muddat tugagach lizing mulkin (uskunalarni) ijaraga beruvchiga qaytarish imkoniyati qisqa vaqt ichida bo'lganligi tufayli moliyaviy qarorlar bo'yicha hisob-kitoblar aniq bo'ladi va istiqbol natijalariga mos tushadi.

Ikkinchidan, kichik, o'rta tadbirkorlar, bozor talabidan kelib chiqib, o'z faoliyatini o'zgartirishida yaxshi natijalar beradi.

Uchinchidan, qisqa muddatga kerak bo'lgan uskunani sotib olishdan ko'ra uni ijaraga olib ishlatish, ijaraga oluvchining fan va texnika yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib beradi.

To'rtinchidan, lizing shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan risklar, lizingni boshqa turlariga nisbatan miqdoriy kamayadi.

Beshinchidan, rivojlanib borayotgan va o'zgaruvchan bo'lmish iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda operatsion lizing moliyalashtirish manbasi sifatida ko'mak beradi.

Oltinchidan, ma'naviy jihatdan tez eskiruvchan va qadrsizlanuvchi uskunalar bo'yicha qisqa muddatli lizing shartnomalari muddatidan ilgari ma'naviy eskirish risklarini, foydalanuvchi o'rniga, ijaraga beruvchi zimmasiga yuklatish imkoniyatini beradi.

Yettinchidan, lizing kontraktini rad etish imkoniyatini yaratuvchi qisqa muddatli lizing shartnomasi lizing shartnomasini rad etish opsiyonini to'lashni talab etsa ham, ijaradan voz kechish imkoniyatini beruvchi ushbu shartnoma aslida adolatli bahoga egadir.

Sakkizinchidan, to'la xizmat ko'rsatish lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchi uskunalar uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini qo'lga kiritadi.

To'qqizinchidan, ko'pincha lizing kichik kompaniya va o'rta biznes korxonalari uchun pul mablag'larini nisbatan arzon manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'ninchidan, aksiya yoki obligatsiyalarni muomalaga chiqarish evaziga mablag' jalb qilishga nisbatan, lizing, past xarajatlar bilan, bosqichma-bosqich, uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlaydi.

O`n birinchidan, lizing shartnomasi asosida olingan uskunalar bo`yicha tezlashtirilgan amortizatsiya asosida ajratmalarini qo`llash imkoniyati yaratiladi va bozor taklifidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgan mahsulot narxlarini va olinadigan foyda hajmini tartibga solish imkoniyatini qo`lga kiritiladi.

O`zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so`ng respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatini o`tkazish imkoniyati tug`ildi. Bu siyosatning ustuvor yo`nalishi bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tishdan iborat. O`z navbatida bozor iqtisodiyoti ko`p bo`g`inli infratuzilmani yaratishni talab etadi.

Shu sababli, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz rahbari I. Karimov o`z chiqishlarida bozor munosabatlarining asosini tashkil etadigan kichik va o`rta biznes rivojlanishiga mutanosib ravishda bog`liq bo`lgan bozor infratuzilmasini: sug`urta, auditorlik, konsalting tashkilotlari qatorida, lizing kompaniyalarini tuzish zarurligini e`tirof etish bilan birga, ushbu infratuzilmalarga ega bo`lmasdan bozor mexanizmlari to`liq ishlay olmasligini alohida qayd etgan.

Lizing bozor infratuzilmasining ajralmas qismi bo`lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o`zida mujassam etadi.

90- yillarning birinchi yarmida bozor islohotlari natijasida bank, kredit muassasalari va korxonalar ilgari iqtisodiyotimizda qo`llanilmagan ko`pgina moliyaviy dastaklardan foydalana boshladilar. Ayni shu yillarda lizing tuzilmalarini faol tashkil etish, iqtisodiyotning ushbu sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, lizing munosabatlarning huquqiy asoslarini shakllantirish boshlandi.

Xususan, 1995 yil 25 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan O`zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining birinchi qismi, 1996 yil 29 avgustda esa ushbu kodeksning ikkinchi qismi tasdiqlandi.

Fuqarolik kodeksining 34-bobidagi oltinchi band lizingga, ya`ni moliya ijarasiga bag`ishlangan bo`lib, unda lizingning ta`rifi berilgan, jami 13 moddadan iborat bo`lgan bu bandeda lizing shartnomasi, obykti, subyekti, lizing to`lovlari, tomonlarning majburiyatlari, javobgarliklari, huquqlari va qator masalalarni qamrab olgan.

Ayni shu davrda “O`zbeklizing interneshnl” AJ (1995y.), Osiyo-Yevropa trust kompaniyasi ( OETK) (1996 y), “Baraka” universal lizing kompaniyasi OAJ (1996 y), “O`zkeysagrolizing” QK (1997y), “O`zavializing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi ( 1997 y) kabi milliy va qo`shma korxonalar tashkil etildi. Bu lizing tuzilmalarni shakllantirishda chet el tajribasidan foydalanildi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi esa lizing kompaniyalari tomonidan mavjud uskunalarni texnik qayta qurollantirish va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish borasidagi ko'plab misollarga boy.

Bu tajribadan samarali foydalanish hamda endigina shakllanayotgan lizing xizmatlari bozorining to'laqonli amal qilishini tashkillashtirish maqsadida lizing faoliyatiga ixtisoslashgan me'yoriy – huquqiy asoslarni shakllantirish zaruriyati tug'ildi.

1997 yilda Respublika Vazirlar Mahkamasining “O'zkeysagrolizing” o'zbek-amerika kompaniyasini tashkil etish to'g'risida”gi 111 qaroriga binoan O'zbekiston banklar assosiatsiyasi va uning sho'ba korxonasi “Baraka” ULK OAJga bir oy muddatda “Lizing to'g'risida”gi vaqtinchalik nizom ishlab chiqib Vazirlar Mahkamasiga kiritish tavsiya etildi.

Tayyorlangan hujjat, lizing asosida moliyalashtirishning shartnoma munosabatlarini qulay sharoitlari va prinsipial asoslarini qamrab olgan edi. Biroq mamlakat hukumati lizing bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada mujassamlashtirish, hamda u lizing munosabatlarining barcha jihatlarini qamrab olishi lozimligidan, kelib chiqib vaqtinchalik nizom o'rniga “Lizing to'g'risida” qonun ishlab chiqish zarurligi haqida xulosaga keladi.

1998 yilda Respublika Vazirlar Mahkamasida qator vazirliklar, bank, moliya va lizing tuzilmalari mutaxassislaridan iborat guruh ish boshlab, u “Lizing to'g'risida”gi qonunning dastlabki loyihasini ishlab chiqdi. So'ngra bu qonun loyihasini yanada mukammalroq qilish, hamda uni tayyorlashga keng doirada mutaxassislarni jalb qilish, hamda uni tayyorlashga keng doirada mutaxassislarni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Budjet, bank va moliya masalalari” qo'mitasi qoshida “Lizing to'g'risida”gi qonun loyihasini tayyorlovchi ishchi guruhi tashkil etilib, uning tarkibiga Oliy Majlis deputatlari, qo'mita a'zolari, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni, Moliya va Adliya vazirliklari, Soliq qo'mitasi, Markaziy bank va “O'beklizing interneshnl” va “Baraka” lizing kompaniyalarining mutaxassislari kirdilar.

Shu yil dekabr oyida O'zbekiston respublikasi “Lizing to'g'risida”gi qonun loyihasi Oliy Majlisning sessiyasiga muhokama uchun kiritildi. 1999 yil 14 aprelda esa Oliy Majlisning qarori bilan O'zbekiston respublikasining “Lizing to'g'risida”gi qonuni kuchga kirdi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat lizing bo'yicha Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan birinchi maxsus davlat hujjati bo'lib, unda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va shartlari, unda ishtirok etadigan subyektlarning huquq va majburiyatlari, lizing obyektining ta'rifi va lizing faoliyatini belgilovchi me'yorlar o'zining aniq aksini topdi.

Mamlakatda lizing munosabatlarining rivojlanishi, hamda respublika tijorat banklarini moliyaviy xizmat turini ko'plab ko'rsatishga jalb qilish maqsadida, O'zbekiston respublikasi markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1997 yil 29 martda tasdiqlangan "O'zbekiston respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qoidalari muhim rol o'ynaydi. Xususan, bu hujjat tijorat banklarining lizing bozorida faoliyat yuritish me'yorlarini aniqlab, bank mijozlari bo'lgan kichik biznes subyektlariga banklar tomonidan lizing xizmatlarini bajarish uchun huquqiy asoslarni yaratdi. Ularning lizing xizmatlari qator xususiyatlarga ega bo'lib, avvalo, deyarli barcha banklar lizing loyihalarini o'zlari uchun past rentabellik bilan amalga oshirdilar. Bu hol mamlakatning o'rta va uzoq muddatli kreditlar uchun mavjud, ammo lizing operatsiyalariga nisbatan qo'llanilmaydigan soliq imtiyozlari bilan bog'liq edi. Tijorat banklari mijozlarni lizing loyihalarini kreditlash stavkasi bo'yicha moliyalaganlar va ularning foydasi QQS hisobiga kamaygan. 2002 yil 28 avgustdagi "Lizing tizimini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, hamda Markaziy bankning "Tijorat banklarining moliyaviy lizing operatsiyalarini olib borish tartibi to'g'risida"gi nizomga kiritilgan tuzatish va qo'shimchalar banklar uchun lizing operatsiyalarini faol amalga oshirishga shart-sharoit yaratib berdi. Lizing beruvchilarni lizing operatsiyalarini o'tkazish chog'ida qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi, lizing xizmatlari bozorida banklarning faol ishtiroki uchun va iqtisodiy asoslarni yanada mustahkamladi va rivojlantirdi.

Respublikamizda lizing munosabatlarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'lidagi vasifalardan biri bo'lib "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Lizing to'g'risida"gi qonunlarni xalqaro lizing qonunchiligi va davlat iqtisodiyotiga oid boshqa qonunlar bilan tartiga keltirilishi hisoblanadi. Bunda Ottavada qabul qilingan (1998 yil) va 1995 yil 1 maydan kuchga kirgan BMT Konvensiyasi qoidalari va ushbu Konvensiyaga a'zo bo'lgan va bo'lmagan davlatlar qonunchiligini inobatga olish asosiy muammolardan biri edi. Ayniqsa, sobiq Ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlarning lizingni rivojlantirish bo'yicha dastlabki yillarda qabul qilingan qonun va qoidalarini o'rganish va ularni o'z qonunchiligimizda takomillashtirishda inobatga olish maqsadga muvofiq edi.


Lizing bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish maqsadida mamlakatda huquqiy islohotlar davom ettirildi. Yuqorida qayd etilgan Prezident Farmoni, hamda "O'zbekiston Respublikasi ayrim qonuniy hujjatlariga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unga muvofiq O'zR Fuqarolik va Soliq kodeksiga, O'zR "Lizing

to'g'risida"gi va "Bojxona tariflari to'g'risida"gi qonunlariga 38 ta o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi. Ta'kidlash joizki, ushbu me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha asosiy tayyorgarlik ishlari qator vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, hamda lizing kompaniyalari va xalqaro moliyaviy institutlar vakillari qatnashgan, "Baraka" kompaniyasi tashabbusi bilan 2001 yilda tashkil etilgan "Lizing xizmatlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha" ishchi guruh tomonidan amalga oshirildi. Lizing to'lovlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish, lizingga berish maqsadida O'zR hududida olib kirilayotgan texnologik uskunalarni QQS va bojlardan ozod etish, xo'jalik subyektlarini lizing oluvchilarni lizingga berilgan mulkni solig'idan ozod etish va boshqalar kabi jiddiy soliq imtiyozlari berilishi ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishining natijasi bo'ldi.

2003 yil 6 fevraldagi lizing bo'yicha qonunchilikka, xususan, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, "Lizing to'g'risida"gi Qonun va "Bojxona tarifi to'g'risida"gi qonunga o'zgarishlar kiritilib, O'zbekistonda lizing rivojlanishi yolidagi barcha asosiy to'g'onoqlar bartaraf etildi. Lizingga doir qonunchilikning bu islohoti progressiv, barqaror huquqiy asosni ta'minlab, O'zbekistonda lizing sohasini jadal rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Yuqorida qayd etilgan ishchi guruhni faoliyati tufayli 2003 yil 30 avgustda O'zbekiston Parlamenti tomonidan Xo'jalik protsessual kodeksiga o'zgartirishlarni qabul qilinishi natijasida, lizing oluvchi shatnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda lizing ob'ekti lizing beruvchi tamonidan talab qilib olinishining soddalashtirilgan mexanizmi yaratildi. Taklif etilgan o'zgarishlar lizing beruvchi tamonidan nafaqat o'z operatsiyalarining hajmini oshirishga, balki ta'minot uchun etarli aktivlari bo'lmagan kichik va o'rta biznes vakillarining lizing bo'yicha uskunalar olishlariga qulaylik yaratdi. Bu esa mamlakatda lizing rivojlanishiga qo'shimcha rag'batlantirish bo'lib xizmat qiladi.


Bugungi kunda jahon amaliyotida lizing munosabatlarining ko'pdan-ko'p turlari va shakllari qo'llanilmoqda. Lizing turlari deganda uning ayrim o'ziga xos xususiyatli belgilari bilan farq qiluvchi lizing shartnomalari tushuniladi. Lizing shakllari deganda uning mazmuni bir bo'lib, faqat lizing ob'ekti va lizing sub'ektlarining, lizing bitimi shartlari hamda unda aks etgan iqtisodiy jarayonlarning shakli va tashkiliy boshqarish jihatlari bilab bir-biridan farqlanadigan lizing munosabatlari tushuniladi.

Bugungi kunda ko'pchilik mamlakatlarda shu jumladan O'zbekistonda ham lizing ning ikkita turi, yani operatsion va moliyaviy lizingga ajratiladi. Ushbu lizing turlarini farqlash uchun ularning soddalashtirilgan rasmlaridan foydalanamiz



1-rasm. Operatsion lizing operatsiyalarining soddalashgan chizmasi.¹

1. Ijara beruvchi va ijara oluvchi o'rtasida ijara shartnomasining tuzilishi.
2. Ijara beruvchi ijara oluvchiga ijara ob'ektini foydalanish uchun beradi.
3. Ijara oluvchi ijara beruvchiga ijara haqqini to'laydi.
4. Ijara shartnomasi tugagandan so'ng ijara ob'ekti ijara beruvchiga qaytariladi.



2- rasm. Moliyaviy ijara – lizing operatsiyalarining soddalashgan chizmasi.²

1. Lizing oluvchi lizing beruvchiga buyurtma beradi.
2. Lizing oluvchi va lizing beruvchi o'rtasida lizing shartnomasi tuziladi.
3. Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida oldi – sotti shartnomasi tuziladi.
4. Lizing beruvchi sotuvchiga lizing ob'ekti haqqini to'laydi.
5. Sotuvchi lizing ob'ektini lizing oluvchiga yuboradi.
6. Lizing oluvchi lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'laydi.
7. Lizing shartnomasi tugagandan so'ng lizing ob'ekti lizing oluvchida qoldiriladi.

Amaliyotda lizing – sublizing shaklida amalga oshirilishi mumkin. Sublizingda lizing oluvchi lizing ob'ektini uchinchi shaxsga shartnoma asosida lizingga berishi mumkin. Bunday holatda dastlabki lizing

1..Nabiev E.G'.,Marpatov M.D.“ lizing g'oyasi,tarixi, xuquqiy asoslari va amaliyoti”. Toshkent . 2004 yil,26 bet.

2.Nabiev E.G'.,Marpatov M.D.“ lizing g'oyasi,tarixi, xuquqiy asoslari va amaliyoti”. Toshkent . 2004 yil,27 bet.

beruvchi (lizing kompaniyasi yoki bank) –“sotuvchi”, lizing oluvchi- “lizing beruvchi” va so’ngi uchinchi shaxs esa lizing oluvchi sifatida faoliyat ko’rsatadi. Xalqaro amaliyotda lizing operatsiyalarining turli xususiyatlariga ko’ra bir nechta turlari mavjud.

Shu kunlarda respublikamizda lizing kompaniyalari uyushmasi va ularni qo’llab – quvvatlash jamg’armsini tashkil etish yzasidan faol harakat olib borilmoqda. Bu tuzilmalar faoliyatining asosiy vazifalari sifatida O’zbekistonda lizing bozorini rivojlantirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yanada mustahkamlash deb belgilanmoqda

1.2. Lizing operatsiyalarini amalga oshirishda banklarning o’rni va roli

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida lizing tuzilmalari ko’pincha banklar, sug’urta jamiyatlari, yirik savdo va sanoat kompaniyalari bilan “qarindoshlik” aloqalari bo’ladi.

G’arbiy Yevropada lizing kompaniyalarining taxminan 80% banklar nazoratidadir.

Banklar lizing operatsiyalariga faol aralashuvi sababi nima?

Sababi bir nechta. Bular – kredit bilan lizing mundariyasi o’xshashligi, banklar sarmoyalarini diversifikatsiyalash talablari, soliqqa oid imtiyozlar, katta daromad keltiruvchi mashina – uskunalar, mulk va shunga o’xshash tovarlarni sotish bitimlari lizing shartnomalari yordamida yashirilishi mumkinligi, yangi pul resursi sifatida foydalanish uchun amortizatsiya fondi berilishi. Darvoqe, ilmiy – texnika taraqqiyoti rivojlanishi jarayonlari qimmatbaho mashina – uskunalaridan foydalanishga asoslangan yangi texnologiyalar paydo bo’lishiga olib kelmoqda. Bunda lizing beruvchi tasarrufidagi amortizatsiya fondlari juda katta hajmlarga yetadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida katta investitsiya resurslari to’planishiga yordam beruvchi tezkor amortizatsiya amaliyoti qo’llanilayotgani ham muhim faktidir.

Bundan tashqari pul mablag’lari ko’rinishidagi kredit o’rniga mulkni uzoq muddatli ijaraga berib, lizing beruvchi mablag’lardan noo’rin foydalanishi xatarini ancha kamaytirishi mumkin.

Bularning barchasi banklarning lizing operatsiyalariga qiziqishini ancha orttiradi.

Lizing oluvchi uchun lizing afzalliklari quyidagilardan iborat:

- yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirib, xulosa chiqarishi mumkinki, lizing shak-shubhasiz, shunday bitimlarning barcha ishtirokchilari uchun foydali operatsiya.

Bu afzalliklar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

- lizing beruvchi hisobiga mashina – uskunalarni darhol sotib olish;
- olingn mashina-uskunalar lizing oluvchining asosiy vositalari tarkibiga kiritilmasligi va natijadabu modda bo'yicha soliqlar to'lanmasligi ;
- lizing to'lovlari hajmi va davriyligi lizing oluvchining aniq davrlariga bog'liqligi ;
- hujjatlar soni kamayishi hisobiga lizing bitimi tuzish jarayoni uchun vaqt kam sariflanishi ;
- mashina-uskunalar bo'lgan ehtiyoj yuz foiz moliyalanishi ;

Xullas lizing-istiqbolli soha.

Lizing obekti-amaldagi tasnifga ko'ra asosiy vositalarga kiradigan har qanday ko'chuvchi va ko'chmas mulk. Faqat bozorda erkin aylanishi taqiqlangan mulk mustasno.

Lizing subektlari-lizing beruvchi, lizing oluvchi ; lizing mulkini sotuvchi .

Lizing beruvchi-uchinchi tomonning so'roviga ko'ra lizing mulki sotuvchisi bilan tuziladigan oldi-sotdi shartnomasiga asosan harid qilinadigan lizing mulki egasi . U lizing mulkini uchinchi tomonga vaqtincha egalik qilishi va foydalanishi uchun beradi .

Lizing oluvchi-oldindan tuzilgan shartnomalar asosida lizing beruvchidan olinadigan va tadbirkorlik maqsadlariga vaqtincha egalik qilish uchun haq evaziga beriladigan mulkdan foydalanuvchi .

Lizing to'lovi-lizing oluvchi lizing beruvchiga to'laydigan pul sumasi . U lizing beruvchining lizing obektini sotib olishi bilan bog'liq xarajatlari hamda lizing stavkasini (lizing beruvchi oladigan foyda hajimini) o'z ichiga oladi .

Ishlab chiquvchi-tadbirkorlik maqsadlari uchun foydalaniladigan moddiy boyliklarni bevosita ishlab chiqaradigan va sotadigan xo'jalik yurutuvchi subekti .

Garchi lizing sof ko'rinishda bank operatsiyasi bo'lmasada , u moliyalashning bank orqali amalga oshiriladigan shakilga tenglashtiriladi . Masalan Fransiya „ lizing ” atamasi qisman „ bank aperiatsiyasi ” deb tasniflanadi .

Haqiqatdan ham, ularning o'xshashligi ayon. Uzoq muddat foydalanishi uchun mutloq olar ekan, lizing oluvchi go'yoki o'z ishlab chiqarish potensialini yangilash uchun kredit olgandek bo'ladi

Malumki , ko`pincha uzoq muddatli kredit korxonaga ishlab chiqarishni yangi texnologik asosda qayta jixozlash uchun kerak bo`ladi. Bunday hollarda , albatta, u:

- 1) shunchaki mashina - uskunalarni ishlab chiqaruvchdan kerakli texnikani sotib olishi;
- 2) xarid uchun bankdan kredit olish mumkin;

Albatta, agar bu moliyaviy jixatdan kuchli korxona bo`lsa , ayni shunday xolat kuzatiladi.

Lekin hatto, shunda ham muammolar tug`ladi. Yangi mashina- uskuna korhona balansiga qabul qilinadi. Amartizatsiya summasi mahsulot tannarxiga qo`shiladi. Bunda, yangi texnologik liniyalar mahsulot chiqarilishini qanchalik tez taminlanishi homa`lum. Odatda bunga muayan vaqt kerak bo`ladi. Sarflanadigan shu vaqt esa ko`pincha bir yildan oshib ketadi. Amaliyotda ko`p xollarda bu maxsulot qiymati oshishiga olib keladi. Natijada, texnika o`zlashtirilayotgan davrda mahsulot narxi o`sib uning raqobatbardoshliligi pasayadi. Ko`pgina korhonalar, hatto ancha kuchlilari ham vaqtinchalik bo`lsada , bunday moliyaviy yo`qotishlarga bardosh bera olmasligi o`z-o`zidan ravshan.

Mashina- uskunalar o`z mablag`lari emas, balki qarzga olingan pul (kredit) evaziga sotib olinayotgan bo`lsa, yuqoridagiga o`hshash vaziyat yzaga keladi. Faqat farqi shundaki, korxona- kreditini va uning kattagina foizlarini o`z foidasi hisobidan qaytarishga majbur bo`ladi. Yangi mashina- uskunalar sotib olishni istovchilar uchun shunday maxsulot ishlab chiqaruvchini topishdek muhim vazifalar to`siq bo`ladi.

Ammo, shunday ishlab chiqaruvchi topildi ham deylik, lekin nima uchun kophona bu mashina- uskunalar sotib olish zarur ? Uni ijaraga olib qo`ya qolish osonroq emasmi. Shunda katta investitsiyalar ham minimallashadi, qolaversa mahsulot qiymati ham unchalik oshib kermaydi. Biroq, bu borada ham yana bir muammo paydo bo`ladi. Bu turdagi bitm muvafaqiyatli bo`lishi qiyin. Chunki mashina- uskunalar ishlab chiqaruvchisi o`z oldiga mahsulotni bir martta ijaraga berish vazifasini qo`ymaydi. Uning maqsadi boshqa texnikani sotish va o`z chiqimlarini qoplash uchun doimiy mablag` olish.

Pui bozorida doimiy paydo bo`luvchi qiyinchiliklar, qo`yilmalar oqilonalashtirilishini talab qqiladigan korxonalar foydasi kamayishi va boshqa sabablar ta`sirida bozordagi ahvol beqaror bo`ladigan , mablag`lar tugatilishini hajmi qisqarishi sharotida vaziyat yanada murakkablashadi.

Ayni shunda lizing qo`l kelishi mumkin. Lizing kompaniyasi mashina- uskunalarini uzoq muddatli ijaraga olmoqchi bo`lgayotganlar tashvishini o`z

zimmasiga oladi. Byurtmachi talablariga javob beradigan mashina-uskunalar ishlab chiqaruvchisi izlab topadi, tegishli haq evaziga, oldindan kelishilgan muddatga ijaraga berish maqsadida o'z mablag'larini hisobidan mashina-uskunalar sotib olishdi.

Lizing operatsiyalarini o'tkazish da tijorat banklarini qatnashishi yoki ularni ushbu operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida rolini kuchayib borishi yuqori darajada foyda olishi bilan asoslanadi. Shuning uchun ham tijorat banklari lizing operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Moliya bozorida raqobatni yanada rivojlantirish, capital investitsiyalar xajmining oshishini ta'minlash, kuchik biznes rivojlanishida lizingni o'rni beqiyosdir. Keyingi yillarda ko'pchilik tadbirkoplarning shu xizmat turidan foydalanilayotganligi buning dalilidir. Lizing operatsiyasining lizing oluvchi va lizing beruvchiga foydali ekanligini quyidagicha izoxlash mumkin: bir tomondan lizing oluvchi kam pul mablag' sharoitida ham kerakli lizing mulkini olish, jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni lizing to'lovlari ma'lum muddatda shartnoma asosida bosqichma – bosqich amalga oshiriladi. Bunda kelishilgan muddat davomida lizing sharti asosida olingan jihozlarni ishlatish natijasida ko'rilgan daromadlar bilan ham lizing to'lovlarini to'lab borishi mumkin. Ikkinchi tomondan, lizing beruvchi ham o'z va qarzga olingan mablag'laar evaziga lizing mulkini ijaraga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa sotiladigan ko'chmas mulklar, tovarlar, uskunalar va boshqalarning savdosi to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaydi. Bank kreditiga qaraganda, yuqorida qayd etilgandek, lizing amaliyoti asosiy vositalarni moliyalashtirish usuli yuzasidan bir qancha ustunliklarga ega. X ususan, bank kreditini olishdan oldin anchagina moliyaviy xarajatlarni qoplash kabi shuningdek, korxona kredit summasining 120 foizidan kam bo'lmagan ta'minotini taqdim etish hamda garovni tayyorlash va sug'urta qilish bo'yicha kommission xaqlarni to'lash kabi bir qancha talablarni baajarish lazim bo'ladi.

Iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi uchun shart – shaaroit yaratib berishga qaratilgan bozor infratuzilmasi institutlarining rivojlanishida lizing kompaniyalarini rivojlantirish aloxida o'rin tutadi.

Darhaqiqat, O'zbekistonda iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga kichik biznesni qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy islohatlar lizing amaliyotlarini yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Respublika bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan sharoitda lizing munosabatlari xizmat ko'rsatishning nisbatan yangi turi bo'lib, iqtisodiyotimizdagi bugungi faol o'zgarishlar qulay moliyaviy vositalardan foydalanishning taqazo qilmoqda. Bu ayniqsa, kichik biznesni

rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishda lizingdan samarali foydalanish imkoniyatlarini bilan bog'liqdir.

Rivojlangan davlatlarda lizing ko'p pul mablag'larini jalb etmasdan ishlab chiqarishni kengaytirishni ta'minlash va uni yangilashga imkon beruvchi ishlab chiqarish sektorini texnik qayta qurollashtirishning samarali vosita ekanligini nomayon bo'lmoqda. Ushbu vositani qo'llash va rivojlantirish uchun taraqqiy etgan davlatlarda kamida ikki ko'rinishdagi muhim soliq engilliklari mavjud bo'lgan va iqtisodiyotning lizing sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli tadbirlar faol foydalanmoqdalar.

Lizing xizmatining afzalligi jahon moliyaviy xizmatlari bozorida ham o'z isbotini topgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, lizingni joriy etish va uning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatida keng qo'llanilishi davlatning ishonchli o'sishida garov bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning lizing to'g'risidagi qonunlariga kiritilgan yangi o'garishlar bozor infratuzilmasi qulay investitsiya iqlimining vujudga keltiribgina qolmay, XMK va boshqa investorlarning kichik biznesga keng miqyosda investitsiya qo'yishlariga ham zamin yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, lizingga berilgan kreditlar avvalo, kredit ta'minoti uchun etarli mablag' bo'lmagan tadbirkorlarga va qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish uchun 40-50 gektar er bo'lgan fermerlarga, uzoq muddatlarga imtiyozli foizlar berishi, maqsadli ishlatilishi, kreditning qaytarmaslik hatari xatari kamligi, iqtisodiyotning real tarmog'iga yo'naltirilishi, yangi ish joylarning ochilishi hamda pirovardida, iqtisodimiz rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

Bank tizimi tomonidan kichik biznes sub'ektlariga qishloq xo'jaligi texnikasi va minitexnologiyalar olish uchun xizmatlar ko'rsatilishini kengaytirish, consulting va injiniring xizmati ko'satish markazlari tomonidan tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifat darajasini va hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Agar tadbirkor qayta tiklangan korxona uchun uskunalar olib kelish kerak bo'lsa yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilmoqchi bo'lsa, nima qiladi? Agar uning shaxsiy resurslari e'ri bo'lsa masala oson echiladi-yu, kerakli uskunalarini sotib oladi. Tadbirkorda hamma vaqt ham erkin mablag' bo'lavermasligi aniq, bu paytda u uchun boshqa yo'l bor - bankka kredit uchun murojat qilish. Lekin bunday ish tutish kichik biznes vakillarining ko'pchiligiga yoqmaydi, vaholanki, hamma ham uzoq vaqt kredit tarixi bilan maqtana olmaydi yoki 120 foizdan kam bo'lmagan kredit

ya'ni uskunalarni lizingga olib kelish. Lizing kelishuvi salohiyatiga baho berishda, lizing kompaniyalari lizing oluvchini lizingga olingan mulkni ishlatishda naqd mablag'larni muayyan oqimini ta'minlay bilish qobiliyatiga tayanadi, bunda bankdan kredit olishdagidek birinchi navbatda kredit tarixiga ham, garovga qo'yish uchun moddiy boyliklar ham bo'lmagan haaangidan tashkil topgan kichik biznes sub'ektlari uchun juda qulay.

Lizing mohiyatini quydagi ibora bilan ifodalash mumkin: "Boylik muikka ega bo'lishdan emas, balki undan foydalanush huquqiga ega bo'lisgdan iborat". Bu jumla lizingning asosiy g'oyasini juda tushunarli aniqlab beradi. Korhona yoki tadbirkor ishlash va foyda olish uchun shahsiy muikka ega bo'lishining o'zi kifoya. Lizing mexanizmi bunday korxonalarga majburiy lizing to'lovlari hisobiga zarur uskunalardan ma'lum muddatga foydalanish huquqiga ega bo'lishga imkoniyat yaratadi. Yna uskunalaridan foydalanishning kelishilgan muddati tugagach, ular korxona mulki bo'lib qolishi ham ko'riladi.

Lizing shartnomasining muhim elementi shundaki, yuridik, shaxsiy mulk (lizing beruvchi tomonidan saqlangan) aktivning (lizing oluvchi ega bo'lgan) iqtisodiy foydalanishdan ajralib turadi. Bu lizing beruvchiga lizing oluvchining kredit tarixi, aktivi va shaxsiy kapitalini emas, balki uni lizing to'lovlarini amalga oshirishda etarli naqd mablag' oqimini taqsim qilish imkoniyatlarini aksent qilishga imkon yaratadi. Bunday shartnoma uzoq moliyaviy tarixga ega bo'lmagan qayta tiklangan kizik korxonalar uchun juda qulay.

Bugungi kunda lizing ko'pgina mamlakatlarda korxonalarining o'rta muddat va uzoq muddatga moliyaviy manbai hisoblanadi, u hoh kichik korxonalar, hoh yirik ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar bo'lsin. Lizing hamma ishbilarmonlar uchun qulay. Lizing oluvchiga korxonaning uncha katta bo'lmagan moliyaviy resurslarini ishlab chiqarish kapital qo'yilmaga aylantirishga, lizing beruvchiga esa, lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi moliyaviy risk uchun to'lov olishga imkon yaratadi. Sotuvchi esa o'z mahsuloti bilan bozorni kengaytiradi.

Umuman lizing tarmoqlarini rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishga bir qancha yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- lizing kichik biznesni yanada rivojlantirishga imkon yaratadi, chunki qandaydir sabablarga ko'ra boshqa moliyalash manboiga to'g'ri kelmaydigan kichik va o'rta korxonalarga ishlab chiqarishni tiklashni tiklash va modernizatsiya qilish imkonini yaratadi;

- lizing kapital qo'yilmalari hajmini kengaytiradi, ya'ni qisqa muddatda moliyalashni qo'shimcha shaklidir;

- lizing moliyaviy xizmat bozorida qo'shimcha raqobatni yaratadi. Lizing paydo bo'lishi bilan moliyalashtirish qismati pasayadi va moliyaviy xizmat bozori kengayadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda lizing ko'pincha asosiy mablag'ga ega bo'lishi uchun bank kreditlashining turdosh ko'rinishidir, bu bilan korxonaga bankdagi qarzni ko'paytirmaslikka imkon yaratdi;

- lizing asbob-uskunalariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Lizing paydo bo'lishi bilan hududiy asbob-uskunalar ishlab chiqaradigan kompaniyalar uchun mahsulotni tatbiq qilishning yangi imkoniyatlari ochiladi.

Ko'pincha lizing iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun almashtirib bo'lmaydigan moliyaviy qurolligi to'g'risidagi fikr ham hukm suradi. Statistika shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar lizingdan juda keng foydalanadilar. Masalan, AQSHda har 3 komp'yuterning biri lizing munosabatlari ob'ektidir. 10 foizdan 30 foizgacha tibbiy asbob-uskunalar o'z egalari tomonidan emas, balki lizing oluvchilar tomonidan ishlatiladi.

Birinchi navbatda, lizingdan foydalanish kichik biznes uchun, yangi tashkil etilgan va asbob-uskunalar mavjud, lekin aylanma mablag'lari bo'lmagan firmalar uchun foydalidir.

Lizing bitimini uch tomon amalga oshiradi; asbob-uskunani sotuvchi, lizing oluvchi va lizing beruvchi. Shu bilan birga bularning barchasi undan manfaatdordirlar. Sotuvchi mahsulotni o'zini to'liq qiymatiga sotadi. Lizing oluvchi, mablag'ga ega bo'lmasdan, asbob-uskunani oladi va uni ishlatish orqasidan foyda ko'radi. Lizing beruvchi moliyaviy risklarga duch keladi va shuning uchun haq talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridanoq lizing munosabatlari rivojlantirishga e'tibor berib kelmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda bir nechta maxsus lizing kompaniyalari va yirik tijorat banklari mana shunday samarali moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirmoqda.

Birinchi lizing operatsiyalari 1993 yilda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan amalga oshirilgan. Shu davrda bank tomonidan O'zbekiston havo yo'llariga chet el kompaniyalaridan samolyotlar sotib olingan, shuningdek, eng birinchi lizing kompaniyasi "O'zbek lizing interneyshnl AJ" 1995 yilda tashkil etilgan, unda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki asosiy tasischi sifatida ishtirok etgan. Shu bilan bir qatorda tashkil topgan boshqa lizing kompaniyalarida ham tasischilar sifatida tijorat banklari ishtirok etganlar hamda ularning ulishlari lizing kompaniyalari sarmoyalarini asosiy qismini tashkil etgan.

**“O‘zbeklizing Interneyshnl A .J.” qo‘shma lizing kompaniyasini
ta’sischilari tarkibi va ularning sarmoyalari to‘g‘risida ma’lumot.¹
(1995 yil)**

N	Ta’sischilar tarkibi	Ulushi (% da)	Sarmoyasi (AQSH dollari)
1	Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bank	35	2.1 mln
2	Meybank	35	2.1 mln
3	ETTB	15	0.9 mln
4	XM	15	0.9 mln
	JAMI	100	6 mln

“O‘zbeklizing Interneyshnl A .J.” qo‘shma lizing kompaniyasini tashkil etulgan yildan 2002 yillar davomida 40 dan ortiq 9.4 mln AQSH dollar summasidagi loyihalarda ishtirok etdi. Suningdek 2010 yilga kelib Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki 270 ta 4.3 milyard.dollardan ko‘proq summani tashkil etgan loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etdi. Bank tamonidan barcha investitsiyalarni 70 foizidan ko‘prog‘ ishlab chiqarish ob’ektlari qurilishiga , jumladan qariyb 50 foizi texnik va texnologik modernizatsiyalash maqsadlariga yo‘naltirildi.²

“O‘zbeklizing Interneyshnl A .J.” qo‘shma lizing kompaniyasining tadbirkorlik sub’ektlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdanq qayta jihozlash loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirish maqsadida 2013 yil 15 yanvarda O‘bekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 sonli qaroriga muvofiq Evropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqoro moliya korporatsiyasi tamonidan “O‘zbeklizing Interneyshnl A .J.” qo‘shma lizing kompaniyasining ustav jamg‘armasidagi ulushining “ O‘zbek -Oman ” investitsiya kompaniyasi M CH J foidasiga berildi. Shunday qilib “O‘zbeklizing Interneyshnl A .J.” qo‘shma lizing kompaniyasining ta’sischilari tarkibida o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bunday o‘zgarishlarni amalga oshirilishi tabiiy hisoblanadi. Chunki ayrim tasischilar tugatilishi mumkin yoki ayrim tasischilarning ulushlari boshqa kompaniyalar yoki korxonalar hisobiga o‘tkazilishi mumkin. Ushbu holatda Evropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqoro moliya korporatsiyasining ulushi “O‘zbek -Oman” investitsiya kompaniyasi M CH J hisobiga o‘tkazilgan.

1.Nabiev E.G‘.,Marpatov M.D.“ lizing g‘oyasi,tarixi, xuquqiy asoslari va amaliyoti”. Toshkent . 2004 yil, 56 bet.

2.TIF Milliy bankning 2010 yil , yillik xisobot ma’teriallari

**“O‘zbeklizing Interneyshnl A.J.” qo‘shma lizing kompaniyasini
ta’sischilari tarkibi va ularning sarmoyalari to‘g‘risida ma’lumot.¹
(2013 yil, yanvar)**

N	Ta’sischilar tarkibi	Ulushi (% da)	Sarmoyasi (AQSH dollari)
1	Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bank	35	3.15 mln
2	Meybank	35	3.15 mln
3	O‘zbek Omon investitsiya Kampaniyasi	30	2.70 mln
	JAMI	100	9 mln

Ikkinchi jadvaldagi ma’lumotlar “O‘zbeklizing Interneyshnl A.J.” qo‘shma lizing kompaniyasining sarmoyasi 2013 yil yanvar oyida 3 mln. AQSH dollari miqdorida ko‘payib 9 mln. AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Respublikamiz tijorat banklari tamonidan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jixojlash uchun katta miqdorda kreditlar ajratilmoqda.


2012 yilda banklarning jami aktivlari summasi 30 foizdan ko‘proqqa, so‘nggi 10 yil ichida esa ushbu ko‘rsatkich 11 barobardan ziyodga, ohirgi 3 yilda esa 2.3 barobarga oshgan.

Banklarning kapitali va ularning jalb qilingan resurslar xajmining muttasil o‘rib borishi, o‘z navbatida, bank tizimining respublika iqtisodiyotining rivojlantirishga, banklarning investitsiyaviy faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining resurs mahbalarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar doirasida ularning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlaashga alohida e’tibor qaratiladi. 2013 yilda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning depazitlar hajmini kamida 30 foiziga oshirilishini taminlash ko‘zda tutilmoqda.

Mazkur chora - tadbirlar natijasida tijorat banklarining kredit portfeli hajmining oshishiga erishiladi va ular tamonidan yanada ko‘proq investitsiya loyihalarini moliyalash imkoniyati yuzaga keladi.

2013 yilda bank tizimini yanada rivojlantirishda banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash va investitsiya faolligini oshirish ustivor vazifalardan bo‘lib qoldi.



3-rasm. Investitsiyaviy kreditlar dinamikasi. (mlrd. so'mda)¹

3- rasmda Tijorat banklari tomonidan investitsiya maqsadlariga ajratilgan kredit qo'yilmalarining hajmi 5.7 trln. So'mni tashkil qildi (2011 yilga nisbatan 1.3 barobarga oshgan. Oxirgi besh yil ichida investitsion kreditlarning hajmi 4 barobarga, oxirgi uch yil ichida esa 2.2 barobarga oshdi.

Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 2011 yilga nisbatan 1.3 barobarga oshdi. Muddati uch yildan ko'p bo'lgan uzoq muddatli kreditlar 30.9 foizga oshdi va umumiy kredit portfelining 76,8 foizini tashkil etdi. Umuman, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalarining umumiy hajmi so'ngi 10 yilda 9 martaga, oxirgi yilda esa 2,4 barobarga oshdi.

Respublikamiz tijorat banklari o'zlarining kreditlari bilan iqtisodiyotimizdagi strategik va muhim iqtisodiy – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qator yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etmoqdalar.

Bunday yirik loyihalarga “O'zbekiston havo yo'llari” MAK ning havo parkini yangilash uchun “Boing-767-300 ER” samoliyoti va qo'shimcha dvigetellarni sotib olish, Surgil konida Ustyurt gaz- kimyo majmuasi qurilishi, Chorbog' GES da ishchi g'ldiraklarni almashtirish orqali gidrogeneratorlarni modernizatsiya qilish, Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodini qurish (2-boaqich) kabilarni misol keltirish mumkin.

¹ I.A.Karimov “2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlari” rga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan.

II.BOB. Tijorat banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va ularni hisobini yuritishning tahlili

2.1. Tijorat banklarining lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibini tahlili

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi 2006 yil 21 oktyabrdagi Markaziy bankning "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida" gi Nizomga muvofiq tashkil etiladi.

Ushbu nizomga muvofiq quydagi umumiy qoidalar belgilangan:

- Banklar faqat lizing shartnomasi muddati tugaganidan keyin lizing ob'ekti lizing oluvchining mulkiga o'tishini ko'zda tutuvchi lizing operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin. Buhda lizing oluvchi lizing beruvchi bankka lizing ob'ektini sotib olish, uni etkazib berish, ishga tayyor holga keltirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni va kelishilgan foizlar to'lovini amalga oshirish lozim.
- Lizing beruvchi bank lizing ob'ektini sotuvchidan kelgusida uning o'ziga lizing asosida foydalanish uchun berish maqsadida sotib olgan taqdirda bir shaxsning o'zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo'lishiga yo'l qo'yiladi.
- Lizing operatsiyalari moliyaviy barqaror bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga to'lovliylilik, ta'minlanganlik, bank tomonidan lizing ob'ektini sotib olishga investitsiya qilingan kredit madlag'larini qaytarishlik va maqsadga muvofiq foydalanishlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.
- Lizing operatsiyasi lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ishlatilishi ko'zda tutilgan hollarda ko'rsatiladi.
- Qumorxonalar va billiardxonalarni tashkil etishda lizing ob'ektini qo'llash ko'zda tutilgan hollarda lizing xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.
- Lizing bo'yicha moliyaviy ijaraga olingan mol- mulkning tasodifan nobud bo'lishi, yo'qolishi, o'g'irlanishi, shikastlanishi, buzilishi va barvaqt eskirishi xavfi bilan bog'liq bo'lgan tarzdagi har qahday etkazilishi mumkin bo'lgan zarardan lizing ob'ektini sugurtalash taraflarni kelishuviga binoan sug'urtalanadi. Bunday kelishuv

bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing ob'ekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi.

- Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'zaro kelishgan holda qonun hujjatlariga muvofiq lizing ob'ektini jadal amortizatsiya qilishni qo'llash xuquqiga ega.

Lizing munosabatlarida lizing shatnomasini rasmiylashtirish tartibi va shartlari quydagilardan iborat:

1. Lizing oluvchi lizing shatnomasini tuzish uchun uning asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- Lizing buyurtmasi;
- Lizing ob'ektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning sotuvchisi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- lizingning butun davrini ichiga olgan pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;
- oxirgi hisobot sanasiga tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan buxgalterlik balansi (1-shakl), moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl), muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari.

Lizing beruvchi banklar lizing berish yuzasidan qaror qabul qilish uchun lizing oluvchidan uning lizing to'lovlarini amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni so'rab olishlari mumkin.

Lizing kompaniyalariga ularga ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochgan tijorat banklari tomonidan import asosida lizing ob'ektlarini yetkazib berish bilan bog'liq lizing xizmati ko'rsatilishi mumkin. (AV 26.03.2007 y. 1648-1-son bilan ro'yxatga olingan MBB Qarori tahriridagi xatboshi)

2. Buyurtma lizing beruvchi bank tomonidan ko'rib chiqilayotganda quyidagilarning tahlili amalga oshiriladi:

- buyurtma beruvchi daromadlarining lizing to'lovlarini amalga oshirish uchun yetarliligi;
- buyurtmada bayon etilgan ma'lumotlarning bir-biriga zid emasligi;
- lizing beruvchi bank oldidagi majburiyatlarni buyurtma beruvchi tomonidan o'z vaqtida bajarish imkoniyatining mavjudligi.

3. Lizing ob'ekti shartnomaga muvofiq lizing beruvchi bank tomonidan lizing ob'ektini sotib olishga, lizing ob'ektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq va boshqa xarajatlarini qaytarish hamda lizing daromadi (foizi) to'lovini amalga oshirish ta'minoti vazifasini bajarishi mumkin.

Bunda lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchi bank foydasiga yo'qolish va shikastlanish hodisalaridan ixtiyoriy sug'urta qilinishi va bu to'g'risida sug'urta polisini bankka taqdim etilishi shart.

Lizing beruvchi lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida sarflangan mablag'larning qaytarilishi va lizing foizi to'lanishining kafolati sifatida lizing oluvchidan boshqa ta'minot shakllarini taqdim etishni talab qilishi mumkin.

4. Lizing foiz stavkalari miqdori lizing oluvchi va lizing beruvchi bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra lizing shartnomasida belgilanadi.

5. Lizing oluvchining buyurtmasi bo'yicha lizing beruvchi bank tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish yoki oshirmaslik to'g'risida qaror qabul qilish muddati buyurtma bankka kelib tushgan kundan boshlab 30 ish kunidan, mikrolizing operatsiyasini amalga oshirish bo'yicha esa 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

Lizing operatsiyasini amalga oshirish asoslantirilgan holda rad etilgan taqdirda, lizing beruvchi bank lizing oluvchiga bu haqda rad etish sababini asoslagan holda yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

6. Lizing operatsiyasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bu haqda lizing oluvchiga bildiriladi hamda lizing beruvchi bank va lizing oluvchi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing shartnomasi tuziladi.

Lizing ob'ekti hisoblangan mol-mulk bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunga muvofiq notarial tasdiqlanishi talab qilinadigan hollarda lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim.

7. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga javob berishi kerak:

a) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob'ekti lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

b) lizing shartnomasining muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing ob'ektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kam bo'lsa;

v) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing ob'ektini uning bozor qiymatidan past narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob'ekti qiymati asos bo'ladi;

g) lizing shartnomasi amal qiladigan davr uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing ob'ekti qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lsa.

8. Lizing shartnomasi lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan kam bo'lmagan muddatga tuziladi. Bunda lizing ob'ektining xizmat muddati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasi uchinchi qismida belgilangan asosiy vositalarning amortizatsiya normalaridan kelib chiqqan holda

hisoblanadi. (AV 30.08.2009 y. 1648-4-son bilan ro'yxatga olingan MBB Qarori tahriridagi xatboshi)

Fermer xo'jaliklariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi mashina-traktor parklariga qishloq xo'jaligi mashinalarini lizingga berish borasidagi lizing shartnomalari 10 yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi. (AV 27.11.2007 y. 1648-3-son bilan ro'yxatga olingan MBB Qarori tahriridagi xatboshi), (Oldingi tahririga qarang)

Lizing shartnomasida lizing shartnomasi amal qilishi boshlangandan to tugagunga qadar lizing ob'ektining qiymati bo'yicha vujudga keladigan o'zgarishlarni inobatga olib, lizing to'lovlari summasiga taraflarning kelishuviga binoan tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish shartlari ko'zda tutilishi mumkin.

Lizing oluvchilar lizing ob'ektini lizing shartnomasi muddati tugashidan oldin istalgan vaqtda lizing ob'ektining qoldiq qiymatini va hisoblangan lizing foizi to'lovini amalga oshirgan holda lizing ob'ektini o'z mulkiga olishi mumkin. Lizing ob'ekti qoldiq qiymati va hisoblangan foizlar to'lovi to'laligicha amalga oshirilgan kundan boshlab lizing shartnomasi shartlari to'la bajarilgan hisoblanadi. (AV 09.07.2007 y. 1648-2-son bilan ro'yxatga olingan MBB Qarori tahriridagi band), (Oldingi tahririga qarang)

9.Lizing shartnomasi tuzilganidan so'ng lizing beruvchi bank va sotuvchi o'rtasida lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Bunda lizing beruvchi bank sotuvchiga mol-mulk muayyan lizing oluvchiga berish uchun sotib olinayotganligini bildirishi shart.

10. Lizing ob'ektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanib, mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqi lizing oluvchiga o'tganidan so'ng lizing operatsiyasi amalga oshirilgan hisoblanadi.

11. Lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing ob'ekti sotuvchi tomonidan bevosita lizing oluvchiga u turgan joyda topshiriladi.

Foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi lizing oluvchi tomonidan rasmiylashtiriladi va lizing beruvchi bank, lizing oluvchi hamda sotuvchi tomonidan imzolanadi.

12. Lizing ob'ekti yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmagan lizing ob'ekti yetkazib berilgan taqdirda, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing oluvchi:

- lizing to'lovini amalga oshirishni kechiktirish;
- etkazib beriladigan lizing ob'ektidan voz kechish;
- lizing shartnomasining bekor qilinishini lizing beruvchidan talab etish;

- lizing shartnomasini bajarmaslik yoki tegishli baxarmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni to'lashni lizing beruvchidan talab qilishga haqlidir.

13. Lizing beruvchi bank har bir lizing operatsiyasi bo'yicha lizing yig'ma jildini shakllantiradi.

Lizing yig'ma jildda quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

- lizing oluvchining buyurtmasi;
- lizing shartnomasi;
- lizing oluvchining oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balansi;
- lizing oluvchining lizing bo'yicha biznes-rejasi;
- lizing oluvchining to'lov qobiliyati va uning biznes-rejasining samaradorligi to'g'risida lizing beruvchi bankning xulosasi;
- sug'urta kompaniyasining lizing ob'ektini sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;
- lizing beruvchining lizing ob'ektini lizing oluvchiga yetkazib berilishi to'g'risidagi buyurtmasi;
- lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi;
- lizing ob'ektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi;
- lizing ob'ektiga sotuvchi tomonidan berilgan texnik kafolat;
- lizing operatsiyasi hamda ta'minoti xarakteridan kelib chiqqan holda olingan boshqa hujjatlar.

Lizing shartnomasi yuzasidan qo'shimcha kelishuv tuzilgan taqdirda, u ham lizing oluvchining lizing yig'ma jildiga tikib qo'yiladi.

14. Lizing oluvchi lizing shartnomasida belgilangan muddat davomida lizing ob'ektiga egalik qilish va undan foydalanish huquqini oladi.

Lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi bo'yicha o'zida paydo bo'lgan huquq, majburiyat va boshqa manfaatlarni uchinchi shaxsga o'tkazish (qo'shimcha lizing)ga faqat lizing beruvchining yozma roziligi asosida ruxsat etiladi.

15. Lizing oluvchi sotuvchi tomonidan lizing ob'ektiga berilgan texnik kafolatdan foydalanadi.

Lizing ob'ektini o'z vaqtida yetkazib berilishi va butlanishi hamda uni o'rnatishga doir majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha sotuvchidan talab qilish huquqini lizing oluvchi o'z zimmasiga olishi lizing shartnomasida belgilanishi mumkin.

Demak Respublikamizda lizing operatsiyalarini rasmiylashtirish yuqoridagi nizomga muvofiq va tegishli yo'riqnomalarga asosan amalga oshiriladi. Shuningdek lizing operatsiyalari har bir mamlakatda uning qonunchilik hujjatlariha muvofiq amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Lizing munosabatlarini amalga ishirishda lizing kompaniyalari va banklar markaziy o'rinni egallaydilar.

2.2. Lizing beruvchi bankda lizing hisobini yuritishning tahlili

Banklar amaliyotida lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobini yuritish muhim ahamiyatga ega ekanligi inobatga olinib, bugungi kunda lizing operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish xalqaro andozalar talablariga asoslanadi.

Lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish Moliyaviy hisobotlar xalqaro andozalarining tegishli shakliga muvofiq ravishda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Lizing ob'ekti lizing beruvchuchining balansida asosiy vosita sifatida emas, balki debitor qarz sifatida sof ijara investitsiya xarajatlari summasiga teng qiymatda aks etadi. Sof ijara investitsiya xarajatlari lizing ob'ektini sotib olish va lizing beruvchiga etkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Sof ijara investitsiya xarajatlari summasi bilan lizing to'lovlari summasi o'rtasidagi farq lizing beruvchining daromadi hisoblanadi.

Lizing beruvchi banklarda lizingga berilgan aktivlar hisobi 15600 - "Lizing (moliyaviy ijara)" hisobvaraqlarida yuritiladi.

Dastlabki tan olish lizing shartnomasining amal qilish muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing beruvchi bank lizingga berilgan lizing ob'ektini o'z balansida sof investitsiyasi qiymati, ya'ni lizing ob'ektini sotib olish, uni lizing oluvchiga yetkazib berish va foydalanishga shay holga keltirish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi yoki uning haqqoniy qiymatida, ularning qaysi biri kichik bo'lsa, o'sha summada aktiv sifatida tan oladi.

Lizing beruvchi bank lizing ob'ekti uchun to'lovlarni sotuvchiga oldindan to'lab berib lizing ob'ekti to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga yetkazib berilsa, lizing beruvchi bank foydalanishga qabul qilish dalolatnomasiga asosan memorial order to'ldirib, quyidagi buxgalteriya amallarini bajaradi:

- Dt 19909 Tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;
- Kt Bankning vakillik hisobvarag'i;

- Dt 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobvaraq);
- Kt 19909 Tovar moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar.

Lizing ob'ekti avval lizing beruvchi bank balansiga kirim qilinib, so'ngra lizing oluvchiga lizingga berilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

- Dt 16500 Asosiy vositalar (tegishli mos hisobvarag'i);
- Kt 19909 Tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;

- Dt 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobvarag'i);
- Kt 16500 Asosiy vositalar (mos hisobvarag'i).

Lizing beruvchi bank tomonidan amalga oshirilgan va lizing shartnomasiga muvofiq lizing oluvchi tomonidan qoplanadigan dastlabki bevosita xarajatlar lizing ob'ekti qiyamatiga qo'shiladi.

Lizing shartnomasiga muvofiq yuqoridagi xarajatlar lizing oluvchi tomonidan qoplanmagan taqdirda, mazkur xarajatlar yuzaga kelgan paytdagi tegishli hisobot davri xarajatlari sifatida tan olinadi.

Lizing beruvchi bank tomonidan lizing ob'ekti dastlabki tan olinganidan so'ng, keyingi hisob lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan lizing bo'yicha asosiy qarz summasini (dastlabki tan olingan summani) va u bo'yicha foizlarning hisobini yuritishdan iborat. Keyingi hisob lizing ob'ektini baholab borishni ham o'z ichiga oladi.

Dastlabki tan olishda yoki ob'ektni lizingga berish (olish) vaqtida lizing beruvchining daromadi (lizing oluvchining lizing foizi bo'yicha xarajatlari) buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi.

Minimal lizing to'lovlarining diskontlangan qiymatini hisoblashda diskontlaydigan omil bo'lib, agar uni aniqlashning imkoniyati bo'lsa, lizing shartnomasida ko'zda tutilgan foiz stavkasi hisoblanadi, aks hollarda, qarz sarmoyasi bo'yicha o'sib boruvchi foiz stavkasidan foydalaniladi.

Lizing shartnomasida lizing beruvchi va lizing oluvchi lizing to'lovlari jadvali (tartibi)ni kelishib oladi. Lizing to'lovlari jadvalida lizing beruvchi bankning daromadi (foizi)ni to'lash hamda lizing ob'ekti qiymatini qoplash bo'yicha lizing oluvchining majburiyatlari va ularning lizing muddati davomida taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Lizing to'lovlari jadvalida lizing beruvchining daromadi lizing shartnomasi muddati davomida muntazam ravishda davrlar bo'yicha teng taqsimlanishi aks ettirilishi lozim. Bunda, lizing shartnomasining har bir davrida qoplanmagan majburiyatlar qoldig'iga doimiy foiz stavkasi qo'llaniladi.

Lizing beruvchi bankning daromadi lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlarining amalga oshirilishidan qat'i nazar, tegishli hisobot davrlarida lizing to'lovlari jadvaliga muvofiq hisoblanadi.

Lizing beruvchi bank tomonidan lizing bo'yicha foizli daromadlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

- Dt 16323 Lizing bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar;
- Kt 45100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar (tegishli mos hisobvaraq).

Lizing to'lovlari kelib tushgan hollarda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

- Dt Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari yoki mijozning depozit yoki bankning vakillik hisobvarag'i (umumiy summaga);
- Kt 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobvaraq) (asosiy qarz summasining qaytarilgan summasiga);
- Kt 16323 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar (foizli daromad summasiga).

Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng lizing to'lovlarini to'lash shartlari to'liq bajarilgan taqdirda 15600 Lizing (moliyaviy ijara) va 16323 Lizing bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar hisobvaraqlari qoldig'i nolga teng bo'ladi.

Lizing oluvchi tomonidan lizing ob'ekti lizing shartnomasi muddati tugamasidan oldin sotib olingan hollarda ham ushbu hisobvaraqlardagi qoldiq nolga teng bo'ladi.

Lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi shartlari buzilganligi sababli qaytarib olinganida, lizing beruvchi ushbu aktivning taqdirini hal etgunga qadar uni o'z balansiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali qabul qiladi:

- Dt 16705 Bankning boshqa ko'chmas mulklari;
- Kt 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (mos hisobvaraq).

Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda aktivga "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi nizomga (2004 yil 24 yanvar, ro'yxat raqami 1304) asosan o'stirmaslik maqomi beriladi va aktivning kelgusi hisobi mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Lizing "Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilish va ularni ishlatish to'g'risida"gi nizom (1999 yil 11 fevral, ro'yxat raqami 632) talablaridan kelib chiqqan holda tasniflanadi.

Lizing beruvchi bank quyidagi ma'lumotlarni oshkor etadi:

1) hisobot sanasiga lizingga qilingan yalpi lizing investitsiyasi bilan hisobot sanasi ga olinishi kerak bo'lgan bo'lg'usi minimal lizing to'lovlarining joriy diskont qiymati bilan taqqoslanmasi;

2) quyidagi davrlarning har biri bo'yicha hisobot sanasiga lizingga qilingan yalpi lizing investitsiyasi va olinishi kerak bo'lgan kelgusi minimal lizing to'lovlarining joriy diskont qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar:

- bir yilgacha bo'lgan muddat;
- bir yildan ortiq, lekin besh yildan ortiq bo'lmagan muddat;
- besh yildan ortiq bo'lgan muddat;

3) olinmagan moliyaviy daromad;

4) olinishi lozim bo'lgan minimal lizing to'lovlari bo'yicha shakllangan umidsiz qarzdorlik bo'yicha yig'ilgan zaxira;

5) lizing beruvchi bank tomonidan imzolangan muhim lizing shartnomalarining umumiy tavsifi;

6) davr mobaynida lizing shartnomalari bo'yicha tegishli mablag'larning yalpi investitsiyadan chegirgan holdagi ma'lumotlar.

2.3. Lizing oluvchi bankda lizing hisobini yuritishning tahlili

Lizing bo'yicha ijaraga olingan mol-mulkning hisobi lizing oluvchining balansida asosiy vosita sifatida yuritiladi hamda korhona tasarrufidagi boshqa asosiy vositalar qatorida unga amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi va qonunchlikda ko'zga tutilgan hollarda mulk solig'i to'lanadi. Lizing ob'ektining hisobi lizing oluvchining o'z mulki sifatida amalga oshiriladi.

Balansda lizing ob'ektining qiymati, uning haqqoniy (bozor) qiymati va shartnomada belgilangan joriy lizing to'lovlari miqdorining qaysi biri past bo'lsa, o'sha summada aks ettirilishi shart. Shu bilan bir qatorda, lizing ob'ekti qiymatiga lizing beruvchi tomonidan uni balansga qabul qilishga qadar amalga oshirilgan bevosita qo'shimcha xarajatlari qo'shiladi.

Lizingga olingan uskunalar lizing oluvchi tomonidan balansda sotib olingan aktivlar va qabul qilingan majburiyatlar sifatida aks ettiriladi. Lizing ob'ekti bo'yicha qabul qilish dalolatnomasi tuzilib, imzolanganidan keyin lizing oluvchi tomonidan balansga qabul qilinadi.

Banklar lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi sifatida ishtirok etgan taqdirda lizingga olingan aktivlar hisobi 16515 - Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqining, lizing bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar esa 22100 - Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvaraqlarida yuritiladi.

Lizing lizing oluvchi bankning moliyaviy yhisobotlarida ham aktiv ham majburiyat sifatida tan olinadi. Ushbu dastlabki tan olish lizing shartnomasi muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing oluvchi bank lizing ob'ektini o'z balansida sof investitsiya qiymati yoki uning haqqoniy qiymatining qaysi biri kichik bo'lsa, o'sha summada aks ettiradi.

Lizingni dastlabki tan olishda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bajariladi:

- Dt 16515 Ob'ektlarni lizingga olish va uni takomillashtirish huquqi;
- Kt 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvarag'i.

Lizing oluvchi bank tomonidan amalga oshirilgan lizing ob'ektini sotib olish, yetkazib berish yoki belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq xarajatlar lizing ob'ektining qiymatiga qo'shiladi.

Lizing ob'ekti lizing oluvchi bank balansida aktiv va majburiyatlarning alohida moddalari sifatida aks ettirilishi lozim. Lizing bo'yicha majburiyatni aktiv summasidan chegirib tashlagan holda (kontr-aktiv hisobvaraq sifatida) ko'rsatishga ruxsat etilmaydi.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing dastlabki tan olingandan so'ng keyingi hisob majburiyat bo'yicha asosiy qarz summasini (dastlabki tan olingan summani) va lizing bo'yicha foizlar to'lash hisobini yuritishdan iborat.

Keying i hisob, lizing bilan bog'liq barcha xavf-xatarlar lizing oluvchiga o'tganligi sabablil izing oluvchi bank tomonidan lizing ob'ektini baholab borish, amortizatsiya ajratmalarini va shartnomada ko'zda tutilgan boshqa xarajatlarni amalga oshirish ishlarini ham o'z ichiga oladi.

Dastlabki tan olishda yoki ob'ektni lizingga olish vaqtida lizing oluvchi bankning lizing foizi bo'yicha xarajatlari buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi.

Lizing shartnomasida lizing oluvchi bank va lizing beruvchi lizing to'lovlari jadvalini kelishib oladi, unda lizing oluvchi bankning foizli xarajatlari, lizing ob'ektining qiymatini qoplash bo'yicha majburiyatlar va ularning lizing muddati davomida taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Lizing to'lovi lizing operatsiyalarining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, u o'zida lizing sub'ektlarining asosiy manfaatlarini ifodalaydi.

Lizing munosabatlarini samarali amalga oshishi va uning ijobiy yakun topishi lizing to'lovlarining qanchalik to'g'ri hisoblanishi va belgilangan tartibda yo'lga qo'yganligiga bog'liqdir. Shuning uchun lizing to'lovlar summasini to'g'ri aniqlanishi va uni o'z muddatida belgilangan tartibda amalga oshirilishi bugungi kunning asosiy va dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. To'g'ri, bizga yaxshi ma'lumki rivojlangan mamlakatlarda lizing muhosabatlarda to'lovlar bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish bo'yicha katta tajriba egallangan. Lekin biz shuni hisobga olishimiz kerakki lizing to'lovlari har bir mamlakatning uchki qonunchilik hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. Shu tufayli lizing to'lovlari tarkibini aniqlash uning summasini hisoblash va to'lovlar davrini to'g'ri belgilanishida qaysi usulni qo'llash masalasi o'z dolzarbligini va maqsadga muvofiqligini yo'qotmagan.

Lizing to'lovlari summasi – lizing ob'ekti qiymatining hammasi yoki ko'p qismi (amortizatsiya ajratmalaridan), lizing ob'ekting sotib olish uchun qilingan jami vositachilik xarajatlari, shuningdek, lizing ob'ekting etkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holatga keltirish bilan bog'liq boshqa qo'shimcha xarajatlar hamda lizing beruvchining daromadi hisoblangan lizing stafkasi (kredit uchun foiz) dan iborat bo'ladi. Lizing to'lovlari tarkibiga lizing beruychi tomonidan lizing shaartnomasi shartlariga muvofiq , lizing ob'ektini sug'urtalashga to'langan sug'urta to'lovlari kiritilishi mumkin. Lizing to'lovlarini quydagi formula yordamida izohlash maqsadga muvofiqdir.

$$LT = AA + KF + BX + QH + ST$$

Ushbu formulada, LT- jami lizing to'lovlari; AA – lizing beruvchiga to'lash uchun hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari; KF - kredit mablag'lari uchun to'lanadigan foizlar yoki lizing stafkasi; BX - lizing beruvchiga lizing ob'ektini sotish bilan bog'liq vositachilik xarajatlari; QH – lizing beruvchiga lizing ob'ektini etkazib berish bo'yicha qilingan qo'shimcha xarajatlar; ST - sug'urta to'lovlari.

Biz endilikda lizing to'lovlarini tashkil etuvchi har bir element ko'rsatkichlarini harakatdagi qonunchilik hujjatlari asosida ko'rib chiqishni va hisoblash tartibini o'rganamiz.

Bank amaliyotidan bizga yaxshi ma'lumki lizing to'lovlarining asosiy qismini amortizatsiya ajratmalari tashkil etadi. Amortizatsiya ajratmalari foydalanilayotgan lizing ob'ekting jismonan va ma'naviy eskirishi natijasida yo'qotilgan qiymatni qoplovchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Amaliyotda amortizatsiya ajratmalari summasi quydagi formulaga muvofiq hisoblanadi.

$$AA = \frac{BQ \times N}{100} T;$$

Bu formulada: BQ – lizing ob'ektining balans qiymati; N – amortizatsiya ajratmalari normasi (eskirish koeffitsienti); T- lizing shartnomasi muddati;

Lizing stafkasi lizing beruvchi tomonidan ijaraga olingan mulkdan foydalanganligi uchun to'lanadigan haq bo'lib u lizing beruvchining daromadi hisoblanadi. Lizing stafkasining mazmuni qarzga olingan mablag'lar (ssudalar) uchun to'lanadigan foizlar bilan bir xildir. Shuning uchun uning summasi foydalanilgan kredit uchun foyiz hisoblash tartibiga mos ravishda aniqlanadi. Ushbu tartibni quydagi formula yordamida aniqlash mumkin.

$$KF = \frac{KM \times FS}{100};$$

Bu formulada: KF – kredit yoki lizing stafkasi; KM – kredit hajmi; FS – foiz stafkasi darajasi;

Lizing beruvchi - lizing kompaniyalari yoki banklar lizing ob'ektining sotib olish bilan bog'liq marketing, transport va xodimlarga ish haqqi to'lash kabi xarajatlarni amalga oshiradilar. Ushbu xarajatlar vositachilik xarajatlari hisoblanib, u lizing to'lovlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu xarajatlar lizing beruvchiga lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan xizmat ko'rsatish mukofoti deyiladi. Vositachilik xarajatlarining miqdori quydagi tartibda aniqlanadi:

$$BX = \frac{KM \times BS}{100};$$

Bunda, KM – kredit hajmi ; BS – vositachilik xarajatlarini stafkasi. U umumiy vositachilik xarajatlari summasini to'lov davriga bo'lib topiladi (BX;T).

Lizing to'lovlari jadvalida lizing oluvchi bankning foizli xarajatlari lizing shartnomasining amal qilish muddati davomida davrlar bo'yicha teng taqsimlanishi

aks ettirilishi lozim. Bunda, lizing shartnomasining har bir davrida qoplanmagan majburiyatlar qoldig'iga doimiy foiz stavkasi qo'llaniladi.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing to'lovlari jadvaliga muvofiq lizing bo'yicha foizli xarajatlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

- Dt 54198 Boshqa banklardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar, yoki
- Dt 54199 Boshqa lizing beruvchilardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar;
- Kt 22408 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha hisoblangan foizlar.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing to'lovlari quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

- Dt 22408 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha hisoblangan foizlar;
- Dt 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar;
- Kt Bankning vakillik yoki lizing beruvchining depozit hisobvarag'i.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing ob'ekti bo'yicha amortizatsiy aajratmalari "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vosita larning buxgalteriya hisobi to'g'risida yo'riqnoma" (2004 yil 17 dekabr, ro'yxatraqami 1434) talablari asosida amalga oshiriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

- Dt 56626 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha eskirish summasi;
- Kt 16519 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv).

Aniq bir davrdagi lizing oluvchi bankning lizing ob'ekti bo'yicha amortizatsiya ajratmasi va moliyaviy xarajatlari (lizing bo'yicha foizlari) summasi mazkur davrda to'lanishi kerak bo'lgan lizing to'lovlari summasiga teng bo'lmasligi mumkin.

Lizing ob'ektini yillik qayta baholash lizing oluvchi bank tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Lizing oluvchi bank tomonidan oxirgi to'lovlar amalga oshirilganidan keyin 16515, 16519, 22100 va 22408 balans hisobvaraqlarida mazkur lizing operatsiyalari bo'yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar (analitik hisob) qoldig'i nolga teng bo'ladi va mulkka egalik huquqi lizing oluvchiga o'tadi.

Lizing ob'ektining lizing oluvchi bankka o'tkazish quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

- Dt 16500 Asosiy vositalar (tegishli mos hisobvaraq);
- Dt 16519 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv);
- Kt 16515 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi;
- Kt 165xx Yig'ilgan eskirish summasi (tegishli mos hisobvaraq).

Lizing shartnomasi muddati oxirida lizing oluvchi bankka lizing ob'ektining sotish sanasidagi haqqoniy qiymatidan past narxda sotib olish huquqi berilgan bo'lsa, sotib olish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

- Dt 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlari;
- Kt Bankning vakillik yok i lizing beruvchining depozit hisobvarag'i;

22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar hisobvarag'i yopilganidan so'ng, lizing obektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tadi va bunda 36-bandda ko'rsatilgan buxgalteriya o'tkazmalari bajariladi.

Lizing shartnomasi uning amal qilish muddatidan oldin to'xtatilib, lizing beruvchi tomonidan lizing ob'ekti shartnoma shartlarida belgilangan tartibda olib qo'yilgan taqdirda, lizing ob'ektini lizing beruvchiga qaytarish lizing shartnomasining amal qilish muddati to'xtatilgan sanadagi lizing ob'ektining qoplanmagan qiymati summasida amalga oshiriladi va bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalar amalga oshiriladi:

- Dt 16519 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv);
- Kt 16515 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi.

Lizing ob'ektining hisobdan chiqarish bo'yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) lizing ob'ektining qoldiq (balans) qiymati va lizing to'lovlari jadvali bo'yicha qolgan qarz o'rtasidagi farq sifatida lizing ob'ektining hisobdan chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar summasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Lizing ob'ektining hisobdan chiqarish bo'yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) aniqlaganida, oldingi qayta baholashlardagi lizing ob'ekti qiymatining ko'paygan summasi, ya'ni oldingi baholashlar natijasida 30908 "Boshlang'ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag'ining kredit

qoldig'i lizing ob'ektining chiqib ketishidan ko'rilgan daromad tarkibiga qo'shiladi va bir vaqtning o'zida ushbu hisobvaraqlar bo'yicha rezerv kapitalini kamaytiradi.

Lizing oluvchi bank lizing bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni oshkor etadi:

1) hisobot sanasiga lizingga berilgan aktivlarning har bir sinfi bo'yicha sof balans qiymati;

2) hisobot sanasiga jami kelgusi minimal lizing to'lovlari bilan ularning joriy diskont qiymati taqqoslamasi;

3) quyidagi davrlarning har biri bo'yicha hisobot sanasiga jami kelgusi minimal lizing to'lovlari bilan ularning joriy diskont qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar:

a) bir yilgacha bo'lgan muddat;

b) bir yildan ortiq, lekin besh yildan ortiq bo'lmagan muddat;

v) besh yildan ortiq bo'lgan muddat;

4) lizing oluvchining muhim lizing shartnomalarining quyidagilarni o'z ichiga olgan, lekin bular bilan chegaralanmagan holda umumiy tavsifi:

a) shartnomaga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarning mavjudligi va shartnoma shartlarining o'zgartirilishi va yangi kiritilgan shartlarning xaridning qulayligiga ta'siri imkoniyatlari;

b) lizing shartnomasi shartlariga asosan qo'shimcha qarzdorlik va kelgusi lizing bitimida o'rnatilgan cheklashlar.

Lizing beruvchi bank quyidagi ma'lumotlarni oshkor etadi:

1) hisobot sanasiga lizingga qilingan yalpi lizing investitsiyasi bilan hisobot sanasiga olinishi kerak bo'lgan bo'lg'usi minimal lizing to'lovlarining joriy diskont qiymati bilan taqqoslanmasi;

2) quyidagi davrlarning har biri bo'yicha hisobot sanasiga lizingga qilingan yalpi lizing investitsiyasi va olinishi kerak bo'lgan kelgusi minimal lizing to'lovlarining joriy diskont qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar:

- bir yilgacha bo'lgan muddat;

- bir yildan ortiq, lekin besh yildan ortiq bo'lmagan muddat;

- besh yildan ortiq bo'lgan muddat;

3) olinmagan moliyaviy daromad;

4) olinishi lozim bo'lgan minimal lizing to'lovlari bo'yicha shakllangan umidsiz qarzdorlik bo'yicha yig'ilgan zaxira;

5) lizing beruvchi bank tomonidan imzolangan muhim lizing shartnomalarining umumiy tavsifi;

6) davr mobaynida lizing shartnomalari bo'yicha tegishli mablag'larning yalpi investitsiyadan chegirgan holdagi ma'lumotlar.

III.BOB. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida lizing imkoniyatlari va lizing operatsiyalarini rivojlantirishni istiqbollari

3.1. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlar faoliyatida moliyaviy lizing imkoniyatlarini oshirish yo'llari

2011 yil 7 fevralda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to'g'risida Prezident qarori qabul qilindi. Unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga doir keng miqiyosli vazifalar, ularni amalga oshirishni aniq yo'llari va muddatlari belgilab berildi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar berish mexanizmini takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatli kreditlar berish, kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini keng jalb etish va yo'naltirish vazifalari belgilab berilgan.

Bugun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga doir keng miqiyosli Davlat dasturi ishlab chiqildi, barcha kuch - imkoniyatlar ana shu dastur ijrisiga qaratilgan. Natijada tadbirkorlik sohasi yanada yuksalib, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining yanada yuksalishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, bugungi kunda biz ychun eng dolzarb masalalardan biri bo'lmish ish bilan ta'minlash va aholi turmush darajasining oshirib borishida aynan shu sohani tez va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlagan holda, hozirgi kunda mamlakatimizdagi ish bilan band aholining 74 foizidan ortig'i shu sohada mehnat qilayotganini ham alohida e'tirof etish lozim.

2010 yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirish hisobidan 480 mingta yangi ish o'rin ochilgan, e'htimol muhimi, bu ish o'rinlarining 60 foizidan ortig'i qishloqlarimizda tashkil etilgan.

2012 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini oshirish kompleks dasturining bajarilishi tufayli qariyb 1 millionta yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu ish o'rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylariga to'g'ri keladi.


Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 485 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish hisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta'minlandi.

Darhaqiqat, tadbirkorlikka yaratilgan keng imkoniyatlar va qulayliklar evaziga 2000 yilda yalpi ichki mahsulotning 31 foizi kichik biznes sub'ektlari tomonidan yaratilgan bo'lsa, 2010 yil yakunlariga ko'ra bu ko'satkich 52,5 foizni tashkil etdi.

2012 yilda kichik biznes sub'ektlariga tegishli ishlab chiqarish korxonalari va mikrofirmalar soni 23,3 mingtaga o'sib, 2013 yil 1 yanvar xolatiga ko'ra 219,4 mingtaga (fermer xojaliklarini hisobga olmagan holda) etdi. Kichik biznesning 2012 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 54,6 foizni tashkil etdi.¹

Yaratilgan qulay investitsiyaviy mahit, jumladan banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'I stafkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xuzmat qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab – quvvatlash borasida bank tizimida solmoqli ishlar amalga oshirildi.



1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan jami kreditlar.
2. Shundan berilgan mikro kreditlar.

4- rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlar dinamikasi. (mlrd. so'mda)²

¹,²I.A.Karimov "2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlari" rga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan.

4-rasmda 2012 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga barcha moliyalash manbalaridan ajratilgan kreditlar 2011 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib 5 trln. 346 mlrd. So'mni tashkil etganligini ko'ramiz. Shuningdek ushbu ajratilgan kreditlarning 1 trln. 172 mlrd. So'mi mikro kreditlar bo'lib, ularning xajmi 2011 yildagiga nisbatan 1,5 barobarga oshgan.

Moliyaviy lizing jahonning barcha mamlakatlarida moliyalashtirish manbalarining tarkibidagi kreditlashda nisbatan muqobil usul sifatida qo'llaniladi. O'zbekistondagi investitsiya loyixilarining katta salmog'i kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan joriy qilinadi. Bunda chetdan kiritilgan uskunalar kreditlar bilan bog'liqligi sababli asosiy vositalarni lizingga olish imkoniyatlari bilan O'zbekiston tijorat banklari kreditlari hisobidan qo'lga kiritish usullarini taqqoslash marsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchidan, lizing beruvchi mulkning qiymatini to'lash yo'li bilan, bunda lizing oluvchining loyihada minimal hajmda ishtiroki talabini qo'ymay turib mulkni sotib olish va lizingga berish mumkin.

Ikkinchidan, lizingga berilayotgan mulk lizing beruvchining mulki bo'lib qoladi. Bu shundan dalolat beradiki, lizing oluvchi lizing to'lovlarini to'lay olmasa yoki lizing shartnomasini boshqa jiddiy majburiyatlarini bajarmagan tardirda, lizing beruvchi o'z mulkini lizing oluvchidan tortib olishi mumkin.

Lizing oluvchining bonkrot deb e'lon qilingan holatlarida uning mulki hibsga olingan va musodara qilinganda, lizing oluvchining umumiy mulkidan lizing ob'ekti ajratib olinadi va lizing beruvchiga o'z xohishi bo'yicha tasarruf etishi uchun qaytariladi. Ushbu mexanizm kreditor bankda garovga qo'yilgan mulkni qaytarish bo'yicha mavjud bo'lgan risklarni bartaraf etadi.

Risklar qanchalik kam bo'lsa, shunchalik moliyalashtirishni amalga oshirish osonroq va arzonroq tushadi. Shu bilan birga, lizing beruvchida lizing ob'ektiga egalik huquqining saqlanishi garov qo'yishga rasmiylashtirishni rad etishga imkon beradi.

Uchinchidan, garovga qo'yishni rasmiylashtirish qo'shimcha moliyaviy harajatlarni talab etadi. Garovga qo'yilgan mulkni majburiy sugurtasi esa, qoida bo'yicha, ijaraga olingan mulkning sugurtasidan qimmatroqqa tushadi. Ssuda oluvchilar izlab topishi va keyinchalik ularni qoplashi uchun zarur bo'ladigan dastlabki harajatlar ko'pincha yirik summalarni tashkil etadi. Bunday harajatlar ni umuman yoqligi yoki qisqartirilishi kreditga nisbatan lizingni yna bir ustunligi hisoblanadi.

Huddi shu tarzda, kichik biznes sub'ektlari ishlab chiqarishni tashkil etishlari uchun chetdan keltirilgan texnologik uskunalar bo'jxona to'lovlarida ozod etilgan. Ammo, bunday imtiyoz kichik biznes sub'ektlari uchun keyinchalik lizingga berish maqsadida olingan import uskunalar uchun qo'llanilmas edi.

Bularning hammasi chetdan keitiriladigan uskunalar lizingni kichik va o'rta korxonalar uchun bank krediti evaziga sotib olishga nisbatan qimmatroq moliyalashtirish manbaiga aylantiradi. Oqibatda, kichik biznes va umuman iqtisodiyot zarar ko'rar edi.

Lizingni soliqqa tortilishi muammolari ildizi shundan iborat ediki, moliyaviy lizing soliqqa tortish maqsadida, lizing beruvchi tomonidan mulkni sotib olinishi sifatida qaralar edi.

Bu quydagi sabablarga ko'ra noo'rin edi:

1. Lizing ob'ektini lizing oluvchi tomonidan keyinchalik sotib olishni moliyaviy lizingning majburiy sharti emas.

2. Agar lizing oluvchi lizing mulkini sotib olishi ko'zda tutilsa, bu lizing shartnomasi amal qilish muddati oxirida qoldiq qiymat bo'yicha yuz beradi.

Lizingni o'zining iqtisodiy mohiyati jihatdan asosiy vositalarini qarzga olish turlaridan biri deb qaralishi hamda ssuda operatsiyaalaridagidek qarzga olish tenglashtirilishi bu turdagi moliyalashtirishlarni bir hil tartibdagi soliqqa tortish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyot tasdiqlashicha, qoida sifatida moliyaviy lizing va kreditlarga nisbatan bir xil qo'shilgan qiymat solig'i olinish tartibi qo'llaniladi. Masalan, AQSH da moliyaviy lizing va kreditlar qo'shilgan qiymat solig'ga tortilmaydi, Germaniya va Buyuk Britaniyada ham lizing ham kredit qo'shilgan qiymat solig'ga tortiladi. Bu mamlakatlardagi lizing operatsiyalarining salmog'i jahon lizing operatsiyalarining 60 foizi miqdorini tashkil etadi.

Tabiiyki, moliyaviy lizing operatsiyalari o'z iqtisodiy mohiyati jihatidan bank krediti kabi asosiy vositalarni investitsiyalash usuli bo'lib, soliqqa tortishda farqlanmasligi zarur. Ushbu farqlarni yo'qotilishi, lizing operatsiyalari va kredit munosabatlarini soliqqa tortishni birxillashtirish O'zbekiston korxonalari uchun ayniqsa kichik va o'rta biznes sohiblari uchun asosiy vositalarni qo'lga kiritishda yangi imkoniyatlar beradi.

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan beshta lizing kompaniyalariga, ular tuzilayotganda katta imtiyozlar berilgan. Lekin ular cheklangan, berilgandan so'ng 5-7 yilda amal qiladi. Bu imtiyozlar ssuda

operatsiyalaridan farqli o'laroq lizing operatsiyalariga emas, faqat bu kompaniya faoliyatiga qo'llanilar edi.

Oqibatda yangitdan barpon etilayotgan lizing kompaniyalari bu bozorga kira olmas edilar, chunki soliq imtiyozlariga ega bo'lgan amaldagi kompaniyalar bilan raqobatlasha olmas edilar. Banklarga ega lizingga nisbatan ssuda operatsiyalarini amalga oshirish edi.

Va albatda, asosiy sabablardan biri kichik va o'rta biznes korxonalariga moliyaviy lizing to'g'risidagi axborotni lizing kompaniyalari va ular ko'rsatayotgan xizmat spektori sohadagi axborotlar to'liq bo'lmagani edi. Tajriba shuni ko'rsatar ediki, ayrim kompaniyalarga ko'rsatilayotgan vaqtinchalik imtiyozlar butun sohani to'laqonli rivojlanishi uchun yetarli emas edi. Lizing munosabatlarini samaraliligini ta'minlash uchun lizing faoliyatini tartibga soluvchi qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritishga qaratilgan choralar majmuasi zarur edi. Bu oxir oqibatda xorijiy va ichki investitsiyalarni mamlakat lizing sohasiga qo'shimcha ravishda jalb etish uchun imkon beradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti real sektorini rivojlantirishga hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatda lizing xizmatlarini yanada rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Shunday moliyalashtirish usullaridan bo'lmish moliyaviy lizing bank krediti evaziga moliyalashtirish usuliga nisbatan qator afzalliklarga egadir hamda kichik tadbirkorlik subyektlari toifasiga kiruvchilar uchun qulay va ochiqdir.

Bir ibora bilan aytiladigan bo'lsa kichik va o'rta korxonalar va tadbirkorlar o'z ishlab chiqarishlarini yo'lga qo'yishdi va yangilashda kengroq doiradagi moliyalashtirish usullaridan qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lishdi.

Kichik biznes sub'ektlariga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan kreditlar berish tizimini yanada takomillashtirish, mavjud muammolarni echimi bo'yicha amaliy chara- tadbirlar ko'rilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday holat kelajakda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlarida moliyaviy lizing imkoniyatlarini oshiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirishning boshqa imkoniyatlari sifatida iqtisodiy islohotlarning xuquqiy bazasini takomillashtirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rolini yanada kengaytirishni taminlaydigan qonunlarni qabul qilish masalasiga e'tibor berilishi kerak.

3.2. Tijorat banklarida lizing xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari

O'zbekiston iqtisodiyoti real sektorini rivojlantirishga hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatda lizing xizmatlarini yanada rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Shunday moliyalashtirish usullaridan bo'lmish moliyaviy lizing bank krediti evaziga moliyalashtirish usuliga nisbatan qator afzalliklarga egadir hamda kichik tadbirkorlik subyektlari toifasiga kiruvchilar uchun qulay va ochiqdir.

Lizing xizmatlarini mazsus ravishda rivojlantirishiga 2002 yilda qabul qilingan va O'zbekiston qonunchiligiga kiritilgan tartibga solishlar asos bo'ldi. 2002 yil 28 avgustda "Lizing faoliyatlarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3122 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakatimiz lizing sektorini rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan va lizing operatsiyalarini soliqqa tortishdagi muammolarni bartaraf etilishi bo'ldi. Farmonga binoan 2002 yilning 1 sentabridan boshlab:

- lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi;
- lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari vakil bankning tegishli tasdig'I mavjud bo'lgan taqdirda, bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi;
- lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar lizingga beriladigan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadilar;
- lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida, u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summaasi uning jami daromadidan chegirib tsshlanadi.

Qabul qilingan farmon lizing operatsiyalarini soliqqa solish va soliqqa tortish shartlarini moliyalashtirishni amaldagi boshqa usullari bo'yicha soliqqa tortish shartlariga moslashtirishga qaratilgan edi.

Farmon qabul qilinishiga qadar, soliqqa tortish maqsadlarida lizing operatsiyalari kapital qo'yilmalarini o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirish usuli sifatida emas, balki oddiy oldi-sotdi sifatida qaralar edi. Bunday holat lizingni moliyaviy vosita sifatida keng tarqalishiga to'siq bo'lib turar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3122 - sonli farmoni qabul qilinishi munosabati bilan bank krediti evaziga moliyalashtirishda hamda lizing operatsiyalarini joriy etishda teng soliq shartlarini shakllantirishga asos soldi

va moliyaviy xizmatlari bozorida qo'shimcha raqobat muhitini yaratishga olib keldi. Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitini rivojlanishi moliyalashtirish qiymatini pasayishiga va va moliyaviy xizmatlar doirasini kengayishiga olib keladi. Bir ibora bilan aytiladigan bo'lsa kichik va o'rta korxonalar va tadbirkorlar o'z ishlab chiqarishlarini yo'lga qo'yishda va yangilashda kengroq doiradagi moliyalashtirish usullarini qo'lga kiritishg muvaffaq bo'lishdi.

Mazkur farmonni O'zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish Ishchi guruhining ishlanmalari inobatga olindi. Respublika ishchi guruhi "Investitsiya faoliyatini jadallashtirishda lizing imkoniyatlari va istiqbollari" mavzuida 2001 yil 13 martda o'tkazilgan respublika seminari natijalari bo'yicha tashkil etilgan edi. Ishchi guruh tarkibida O'zbekistondagi barcha lizing kompaniyalari, tijorat banklari, turli vazirlik va idoralar, O'zbekiston banklari uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi vakillari hamda Markaziy Osiyo lizingni rivojlantirish bo'yicha Xalqaro moliya korporatsiyasi loyihasi ekspertlari tomonidan ish olib borildi.

Lizing qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha o'ta muhim qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yil 13 dekabrda Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, "Lizing to'g'risida"gi va "Bojxona ta'riflari" to'g'risidagi qonunlarga kiritilgan 38 ta o'zgartirishlar bo'ldi. Ushbu o'zgartirishlarning kiritilishi amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini berdi. Masalan, Fuqarolik kodeksidan lizing beruvchi moliyalashtirishni faqat o'z mablag'lari evaziga amalga oshirish majburiyati me'yori chiqarib tashlandi va endilikda lizing beruvchi lizing shartnomalari bo'yicha nafaqat o'z mablag'lari evaziga, balki bank kreditlari va boshqa jalb etilgan mablag'lar hisobidan ham lizing operatsiyalarni joriy etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. "Lizing to'g'risida"gi qonundan esa tezkor lizing tushunchasi olib tashlandi va quyidagi asosiy masalalarni muvofiqlashtirishga erishildi:

- Soliq kodeksi va "Bojxona ta'rifi to'g'risi" dagi qonunda 2002 yil 28 avgustda "Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidagi o'zgartirishlar kiritildi;
- Fuqarolik kodeksi va "Lizing to'g'risida"gi qonunda lizing beruvchi, lizing oluvchi va lizing mulki sotuvchisining huquq va majburiyatlari yanada aniqroq qilib belgilanadi. Bundan tashqari, ular o'rtalaridagi majburiyatlarni o'zaro bo'lishini lizing operatsiyalarining amalga oshirilishini mustahkam qonunchilik asosini vujudga keltirdi.

Kiritilgan o'zgartirishlar bank krediti va asosiy vositalarga safarbar etiladigan investitsiyalarni boshqa turlari bilan bir qatorda lizingni investitsion mohiyatini anglatadi. Bu o'zgartirishlar O'zbekistonda lizingni rivojlantirishni mustahkam zaminini yaratib berdi. Bular asosida esa, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun, lizing qulay hamda nisbatan jalb etuvchan moliyaviy vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligiga ishonch hosil qilindi.

Amalga oshirilgan o'zgartirishlar, nafaqat mavjud bo'lgan lizing kompaniyalari, balki mamlakatimiz lizing sektoriga tashqi va ichki investitsiyalar oqimi o'sishi evaziga yangidan tashkil etiladigan kompaniyalar faoliyatiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Chet el kapitali oqimining o'sishi lizing kompaniyalari xizmatlari doirasini kengaytirish va operatsiyalar hajmini oshirish yo'li bilan ular kapitallashuvi masalalariga ko'maklashadi. O'zbekiston tijorat banklari ham lizing xizmatlari xajmini va lizing sektorini moliyalashtirishni kengaytiradi.

Lizing operatsiyalari tijorat banklari uchun bir qator afzalliklarga ega. Misol uchun lizing operatsiyalari bo'yicha biznes reja tayyorlash kredit operatsiyalari amaliyotiga nisbatan qulay, chunki lizingda biznes ob'ekti va undan foydalanish munosabatlari aniq jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi va ularga bog'liqdir. Lizing bo'yicha bank resurslarini maqsadga muvofiq ishlatilishi to'la taminlanadi. Shuningdek, banklarda lizing ob'ektini kredit taminoti sifatida qabul qilish huquqini mavjudligi banklar uchun ushbu amaliyotlarni yoki lizing operatsiyalarini amalga ishirish bo'yich qulay imkoniyatlar yaratadi.

Makroiqtisodiy jihatdan mamlakatda investitsiya jarayonini jadallashtiradi, capital qo'yilmalar hajmi oshib boradi va ishlab chiqarish sohalarida asbob- uskunalar bilan taminlanish yaxshilanadi, shuningdek mavjud bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi oshadi. Shu bilan bir qatorda iqtisodiyotni real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bozor munosabatlarida moliyaviy bozorda bank kreditga nisbatan qo'shimcha raqobatni vujudga keltiradi hamda lizingdan foydalanuvchilarga tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak Rossiyalik iqtisodchi olimlar lizing operatsiyalarining mamlakatni investitsiya tang xolatidan qutqaruvchi yagona omil sifatida baholashgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni rivojlanishiga hamda yangi mulkdorlar sinfini shakllanishiga lizing munosabatlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi, hamda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi.

Bank amaliyotida xalqoro lizing munosabatlari o'ziga xos xususiyatlaari afzallik tomonlari bilan ajralib turadi. Chunonchi lizing

bo'yicha import qilingan xirijiy asosiy vositalar qiymati mamlakat tashqi balansida aks ettirilmaydi. Bunday holat lizing oluvchi mamlakatlarning moliyaviy xolatini baholashda ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Umumiy tartibda olib qaraganda lizing munosabatlari yoki operatsiyalari mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy jihatdan o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim boshqarish mexanizmlaridan biri sifatida tan olingan yoki isbotlangan.

Lizing munosabatlari istiqbolli soha ekanligini tushingan holda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida muxim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek Respublikamiz iqtisodiyotida ham lizing munosabatlarini yoki operatsiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda Respublikamiz qonunchilik va meyoriy hujjatlarida tegishli imtiyozlar kiritilgan va ular bank amaliyotida o'z o'rnini topgan.

Lizing munosabatlarni rivojlantirish va amaliyotda keng qo'llanilishini taminlash uchun Respublikamizda etarli shart- sharoitlar yaratilgan.

Xulosa qilishimiz mumkinki, keyigi yillarda kichik biznes sub'ektlari va tadbirkorlik sohasida qo'lga kiritgan yutuqlar, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, iqtisodiyot tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakillantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlar natijasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xalqoro hamjamiyatda tan olingan o'zbek modeliga asoslangan holda kechmoqda. Ushbu modelni afzalliklari nafaqat shu yurt udum va urf – odatlariga suyanish, balki jahon tajribalarini o'rganib, talqin qilib va bizning sharoitga moslashgan holda tatbiq etib borishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi uchun asosan selektiv innovatsiyaviy rivojlantirish, to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar, litsenziyalar sotib olish, yangi texnologiyalar importini rag'batlantirish va qulay infratuzilma yaratish islohotlarining bugungi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Lizingning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, lizingning paydo bo'lishiga ob'ektiv sabablar imkon berdi va tegishli shart – sharoitlar bir tamondan lizing mulkiga talabni oshirgan bo'lsa, ikkinchi tamondan bo'sh turgan moliyaviy resurslarni lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun jalb etishning oshishiga olib keladi. Demak bunday holatda tijorat banklari resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

2013 yilda bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, Respublika moliya - bank tizimini yanaada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirishning ustivor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan dasturda ko'zga tutilgan tadbirlarni so'zsiz amalga oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, bank aktivlari va kredit portfelining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu vazifalar doirasida bank tizimi nazoratini Ba'zel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, bank tizimini va alohida banklarni yuqori xalqoro reteng baholariga ega bo'lishini ta'minlash, tijorat banklarining resurs bazasini yanada kengaytirish, ularning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategic muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab – quvvatlashga yo'naltirilgan kreditlar hajmlarini ko'paytirish kabi muhim chora tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Yuqoridagi fikr muiohazalardan kelib chiqib biz quyidagi xulosa va tavsiyalarni berilishini maqsadga muvofiq deb bildik:

- Respublikamiz tijorat banklari faoliyatida lizing operatsiyalarini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga erishihsimiz zarur.

- Lizing munosabatlari bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasining o'rganish va ularning ijobiy jihatlarini o'rganish Respublikamiz amaliyotida qo'llanilishini ta'minlash.
- Respublikamizning investitsiya dasturlarida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan etibor kuchaytirilgan siyosatni amalga oshirish .
- Respublikamiz tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirish , investitsion kreditlarni berish va ularga xizmat ko'rsatish bo'limlarini ushbu yo'nalishdagi malakali kadrlar bilan ta'minlash.
- Respublikamizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, qishloq joylarda loyixaviy yangi turar joylarni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olish kabi investitsiya loyihalarini ko'paytirish va ularni amalda bajarilishini taminlash.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotning avvalida absorbttsiya , nusxa ko'chirish yo'lini tanlashgan bo'lsa , rivojlanishning ma'lum bosqichiga kelib, yangi innavatsiyaviy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olib, ustunliklarni saqlab kelishmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi uchun asosan selektiv innovatsiyaviy rivojlantirish, to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalar, litsenziyalar sotib olish, yangi texnologiyalar importini rag'batlantirish va qulay infratuzilma yaratish islohotining bugungi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak,Respublikamizda lizing munosabatlarining rivojlanishi iqtisodiyotda ishlab chiqarishni o'sishiga va tijorat banklarining xizmat ko'rsatish faoliyatini kengayishi uchun xizmat qiladi.

Ushbu bildirilgan xulosaviy fikr va ta'vsiyalarimiz ishlab chiqarish amaliyotida o'z o'rnini topishiga va muxim ahamiyat kasb etishiga ishonib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qararlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.:“ O'zbekiston”, 2002.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Ko'dekisi,1995 yil 25 dekabr.
- 3.O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida” gi qonuni.1999 yil 14 aprel
- 4.“O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida” gi Qonun.T.“O'zbekiston”.1995.
5. O'zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. T.“O'zbekiston”.1996.
- 6.O'zbekiston Respublikasining “Bank siri to'g'risida”gi Qonuni.T. .“ Adolat” 2003y.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ipoteka to'g'risida”gi Qonuni.T “O'zbekiston” 2006.
- 8.“Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 05.04.2002y. N:360–11.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillardagi respublika moliya – bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqoro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida”gi. PQ-1438-sonli Qarori.“Xalq so'zi” gazetasi.2010 yil. 27-noyabr.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.2007 yil 7-no'yabr, PQ-726. .“Xalq so'zi” gazetasi.08.11.2007 yil.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi PF-3878-sonli “Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.- O'zbekiston moliya qonunchiligi.-Toshkent: Agroxarita, 2007.N: 6-40-43.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 25 maydagi PQ-148-sonli tasdiqlangan namunaviy loyixalar bo'yicha yakka tartibdagi uy- joy qurilishi uchun “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat bankitomonidan imtiyozli kreditlar berish tartibi to'g'risidagi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari 1 to'plami, 2009 yil 22 son, 259- modda.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.2008 yil.11 yanvar.N: PQ-775. ."Xalq so'zi" gazetasi.12.01.2008 y.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lizing tizimi rivojlanishini yanada rag'batlantirish bo'yicha chara - tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni .2002 yil, avgust.

15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport saloxiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmoni. 2008 yil 28 noyabr,N:PF-4058 "Xalq so'zi" gazetasi.29.11.2008 yil.

16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Naqd pul mablag'larini jalb qilish va unga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.2008 yil. 27 mart N: PQ-822. ."Xalq so'zi" gazetasi.28.03.2008 yil.

17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank plastik kartochkalaridan foydalanilgan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.2010 yil. 19 aprel. N: PQ-1325."Xalq so'zi" gazetasi. 20.04.2010 yil.

18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanaga isloh qilish va erkinlashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ."Xalq so'zi" gazetasi.15.04.2005yil.

19."Ipoteka krediti berishni qo'llab quvvatlash jamg'armasi faoliyatining tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 16.02.2005 yil N: PQ-69 ."Xalq so'zi" gazetasi.17.02.2005 yil.

20."Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 18.05.2007 yil . "Xalq so'zi" gazetasi.19.05.2007 yil.

21.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi PQ-1317- sonli "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investisiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

22.O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki T: "O'zbekiston" - 2011 y

23.O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normative huquqiy hujjatlar to'plami. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki T:"O'zbekiston"-2011y

24.O'zbekiston Respublikasining banklari tomonidan kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash bo'uicha qonunchilik hujjatlar

to'plami. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki T: "O'zbekiston"- 2011
25.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarining amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibito'g'risida" gi Nizom. 2006 yil, 21 oktyabr.

26.Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisogiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari". – T.: "O'zbekiston" - 2009 . – 56 b.

27.Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir". – T.: "O'zbekiston" - 2010.

28.Karimov I.A. "Bank tizimi, pui muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida ". – T.: "O'zbekiston" - 2011.- 528 b.

29.Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisogiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. – asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Xodiev B.YU. ba boshqalar.T.: "Iqtisodiyot" - 2009 .

30.Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent, O'zbekiston. 2012 . – 36 b.

31.Karimov I.A.2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'jallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vaazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

1.Abdullaeva SH.Z." Bank ishi" o'quv qo'llanma. T." Moliya" 2003 y.

2.Abdullaeva SH.Z. , Safarova Z.B." Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish ". T:" Iqtisod-Moliya". 2007 y. -200 b.

3.Abdullaeva SH.Z. , Qoraliev T.M.,Ortiqov U.D." Bank resurslari va ularni boshqarish ". Monografiya./ - T:" Iqtisod-Moliya". 2009 y. -104 b.

4.Abdullaeva SH.Z." Xalqaro valyuta – kredit munosabatlari" . Darslik. – B.M.: T.:" Iqtisod-Moliya", 2006 y. 576 b.

5.Abdullaeva SH. Z., Navro'zova K.N." Bank hisobi ". Toshkent . 2007. 6.

Nabiev.E.G',Marpatov M.D. " Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti".O'quv qo'llanma .Toshkent. 2004.

7.Lavrushin O.I. Bankovskiy delo: uchebnik. 2-e izd. Pererab.i dop./ O.I.Lavrushina. – M.: Finansi' I statistika, 2008. -594 s.

8. Nabiev.E.G',Marpatov M.D. " Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti".O'quv qo'llanma .Toshkent. 2004.

9. G'ozibekov D.G'." Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti" . " Fan va texnologiya" -2004.

10.Xodjaev R.,Egamberdiev A.“ Kichik biznes va tadbirkorlik”. O’quv qo’llanma Toshkent.-“ Iqtisod- Moliya” 2008 y.108 b

III. Davriy nashrlar,statistik to’plamlar va hisobotlar.

- 1.Mullajonov F.M. Pul – kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetary siyosatning 2012 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari. “Bozor, pul va kredit” jurnali 2012 y N:-1
- 2.Mullajonov F.M. O’zbekiston bank tizimi:Barqaror rivojlanish,xalqaro mezonlarga erishish yo’lida. “ Bozor,pul va kredit” jurnali 2013 y. N: -1
- 3.“Bozor, pul va kredit” Jurnal 2010-013 yillar
- 4.“Bank axborotnomasi” gazetasi 2010-2013 yillar
5. ATIB “ Ipoteka bank” ning yillik hisoboti 2012 yil

IV. Internet saytlari:

- 1.www.bankir.ru
- 2.www.state.us
- 3.www.cer.uz.
- 4.www.nbu.com
- 5.www.bir.uz
- 6.www.cbi.uz